

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

«DAK» ga taqdim etaman
Tabiiy fanlar
fakul'teti dekani:
_____ dots. V.Azizov
“ _____ “ _____ 2012 yil

TABIIY FANLAR FAKUL'TETI

**5440500-Geografiya kundizgi ta`lim yo`nalishi bo`yicha bakalavriat bosqichi
bitiruvchisi**

AXMADJANOVA AZIZAXON ABDULPATTAEVNAning

**« Mingbuloq tumani geografiyasi »
mavzuidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar :

g.f.n., dots. T.Mallabaev

Namangan – 2012

Bitiruv malakaviy ishning asosiy mazmuni Namangan Davlat universiteti professor-o`qituvchilari va talabalarining 2011 va 2012 yillardagi ilmiy-amaliy anjumanlarida ma`ruza qilingan. Ishning kirish qismida bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi, maqsadi, vazifasi, o`rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi va ahamiyati, g'oyaviy asosi va tadqiqot usullari yoritilgan. Ishning birinchi bobi kichik hududlar (tuman) tabiiy va ho`jalik majmuining rivojlanishini geografik jihatidan tadqiq etishning nazariy – uslubiy masalalari hamda tuman (kichik hudud) tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining omillari (geografik asoslar) va Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida iqtisodiyotni modernizatsiyalash va mintaqalarda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish masalalari yoritilgan. Ishning ikkinchi bobi esa Mingbuloq tumani tabiiy sharoitini ho`jalik jihatidan baholash, aholisi va mehnat resurslari hamda iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga bag'ishlangan bo`lib, unda iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillari, ho`jaligi va uning tarmoq va hududiy rivojlanishini takomillashtirish masalalari ko`rib chiqilgan. Xulosada Mingbuloq tumanining tabiiy va ho`jalik majmuini jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida modernizatsiyalash asosida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish masalalari bo`yicha tavsiyalar berilgan.

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
I-BOB. KICHIK HUDUD (TUMAN) RIVOJLANISHINING GEOGRAFIK ASOSLARI.....	9
1.1 Tuman (kichik hudud) rivojlanishining geografik asoslari.....	9
1.2 Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi sharoitida mintaqa geografik asoslarni modernizatsiyalash va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish....	14
1.3 Tuman (kichik hudud) geografiyasini tadqiq etishni nazariy-uslubiy masalalari.....	19
II-BOB. Mingbuloq tumani geografiyasi.....	24
2.1. Tabiiy sharoiti va resurslari.....	24
2.2 Tuman aholisi va mehnat resurslari.....	45
2.3 Ho’jaligi va uning rivojlanishini takomillashtirish.....	57
XULOSA.....	72
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	75

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, uning salohiyatini uzluksiz yuksalib borishi mamlakat mintaqalarining tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy geografik jihatidan chuqur o'rganish asosida ijtimoiy ishlab chiqarishni tashkil etishiga bog'liq. Hududning geografik jihatdan majmualiy o'rganish esa uning geografik joylashishi va tabiiy sharoiti (geologik rivojlanishi, rel'efi, iqlimi, tuproqlari va ularni unumdorligi, o'simlik, yaylov qulay hamda noqulayligi va h.k), mineral xom ashyo resurslari va ularning zahirasi hamda sifati, suv resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi, demografik jarayonlarning rivojlanishi, mehnat resurslari va ularning sifati hamda xo'jaligini tarmoq va hududiy rivojlanishini tadqiq etishdan iborat. SHuningdek, mintaqaning geografik jihatdan majmualiy o'rganish tarkibiga uning fan – texnika salohiyati, zamonaviy texnologiyalar va ularning ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etilganlik darajasi, mahalliy hamda xorijiy sarmoyalar (investitsiya) va ularning miqdori hamda shakllarini taxlili ham kiradi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin uning har bir mintaqalari, tumanlari, shahar va qishloqlarini tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy geografik jihatidan chuqur o'rganishni taqazo etdi. Respublika Prezidenti I.A.Karimov bu haqida alohida ta'kidlab “Alohida e'tibor qaratish lozim bo'lgan navbatdagi eng muhim ustuvor vazifa qishloqda turmush darajasini yuksaltirishga, qishlog'imiz qiyofasini o'zgartirishga qaratilgan uzoq muddatli va bir-biri bilan chambarchas bog'liq keng ko'lamlilik chora-tadbirlarni amalga oshirish, ijtimoiy soha va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishni jadallashtirish, mulkdorning tadbirkorlik va kichik biznesning maqomi, o'rni va ahamiyatini tubdan qayta ko'rib chiqish, fermer ho'jaliklari rivojini har tomonlama qo'llab-quvvatlashdan iborat”¹, degan edi. Darhaqiqat, mavjud imkoniyatlarni o'rganish asosida ishtimoiy ishlab chiqarishni tashkil etish, mintaqalar iqtisodiyotini barqaror va uzluksiz rivojlanishni ta'minlaydi, ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, provardida esa halq turmush farovonligini yuksaltiradi. SHuning uchun ham respublika mustaqilligining dastlabki yillaridanoq Prezident I.A.Karimov mamlakat mintaqalarining barcha imkoniyatlarini ijtimoiy ishlab chiqarishni tashkil etishda faol ishtirokini ta'minlash strategik masala qilib qo'ydi. Natijada qisqa muddatda respublikaning avvallari iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan sust rivojlangan mintaqalari – Qoraqolpog'iston Respublikasi, Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro va Navoiy viloyatlaridagi tabiiy, iqtisodiy – ijtimoiy resurslarini chuqur o'rganish va ularni ishlab chiqarishni tashkil etishga jalb etilishi oqibatida zamonaviy texnologiya bilan jixozlangan Qo'ng'iroq soda zavodi (Qoraqolpog'iston Respublikasi), Navoiy tog'-kon metallurgiya majmui, Dehqonobod kaliy zavodi, SHo'rtangaz – ximiya sanoat majmui (Qashqadaryo viloyati), Qoravulbozor neft'ni qayta ishlash zavodi (Buxoro viloyati), uzunligi 240 km. dan ortiq “Asr qurilishi ” nomi bilan atalgan “G'uzor – Boysun-Qumqurg'on temir yo'li” va boshqa yuzlab ishlab chiqarish ob'ektlari bunyod etildi. Iqtisodiyotning agrar sohasida ham jiddiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Respublika mintaqalarining tabiiy sharoiti, ayniqsa iqlimi, tuproqlarining holati va suv resursi bilan ta'minlanganlik darajasini chuqur o'rganib, dexqonchilikda tarmoq o'zgarishlar yasaldi. Paxta ekin maydonlari qisqartirilib, g'alla, bog'dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik va polizchilik maydonlari kengaytirildi. Bularning hammasi o'zining ijobiy natijasini berib, respublika iqtisodiy mustaqilligini ta'minlamoqda va uning jaxon hamjamiyatidagi nufuzini oshirmoqda.

YUqoridagilardan kelib chiqqan holda Namangan viloyati ho'jaligini oqilona va samarali rivojlantirish uchun uning barcha tumanlarini iqtisodiy-ijtimoiy geografik jihatdan o'rganish asosida tashkil etish juda dolzarb masaladir. Xolbuki, Vazirlar Maxkamasining 2008 yil yakunlariga bag'ishlangan yig'ilishida Prezident I.A.Karimov ma'ruzasida respublikaning qator viloyatlari, shu jumladan Namangan viloyatida keyingi yillarda mavjud tabiiy, iqtisodiy-ijtimoiy va boshqa imkoniyatlardan etarli darajada foydalanilmayotganligi oqibatida iqtisodiyotni oqsayotgani alohida ta'kidlandi. SHuning uchun mazkur bitiruv malakaviy ishining **tadqiqot ob'ekti** “Mingbuloq tumani geografiyasi” etib belgilandi. **Tadqiqot predmeti** esa tuman

¹ Karimov I.A..Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T., “O'zbekiston”, 2009, 41 bet.

hududining tabiiy sharoiti va resurslari, demografik jarayonlarining rivojlanishi xususiyati, mehnat resurslari va bandlik masalalari, xo'jaligini tashkil etish va rivojlanishini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berishdan iborat.

Iqtisodiyotni oqilona tashkil etish va samarali rovojlantirishda hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish omillarini baholash ahamiyati beqiyosdir. Binobarin, Mingbuloq tumanining tabiiy sharoiti va resursi, aholi va bandlik hamda iqtisodiyotini geografik jixatidan ilk bor o'rganilishi mavzuning **ilmiy yangiligi** va **ahamiyatini** belgilaydi.

SHuni alohida ta'kidlash lozimki, O'zbekiston mustaqilligini mustaxkamlashda uning barcha mintaqalari faol qatnashmoqda. Mingbuloq tumani maydoni 740 kv.km bo'lib, (viloyat maydonining 10,0 foizini), u 110,0 mingdan ortiq axoliga ega va u esa viloyat aholisining qariyb 5,0 foizini tashkil etadi. Bu erda viloyat qishloq xo'jaligi yalpi maxsulotining 7,0 foizi, sanoat ishlabchiqarishning esa 4,1 foiz maxsuloti ishlab chiqariladi. Tuman Namangan viloyatining 13,3 foiz paxtasi va qariyb 11,0 foiz g'allasini etkazib beradi.

Mingbuloq tumani va uning mehnatkashlari respublika mustaqilligining mustaxkamlashda faol ishtirok etmoqdalar. Tuman mehnatkashlari respublika mustaqilligining 21 yilligi arafasida katta iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar yasadilar. Ular bozor iqtisodiyoti munosabatlarini amalga oshirib, mavjud 9 ta shirkat xo'jaliklari, 120 ta korxonalar, muassasa va boshqa ishlab chiqarish tarmoqlari xususiylashtirildi. Xozirgi kunda tumanda 809 ta fermer xo'jaliklari, 30 ta dehqon fermer xo'jaliklari, shuningdek bir nechta kichik va o'rta biznes sub'ektlari hamda qo'shma korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda.

Bitiruv malakaviy ish mavzusini mazmunli yoritish va kutilgan natija hamda tavsiyalariga ega bo'lish uchun quyidagi **maqsad** va **vazifalar** belgilandi:

- tuman ko'lamidagi kichik hududlarni o'rganishning nazariy – uslubiy masalalarni yoritish;
- kichik hududlar tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining omillari taxlili ;
- jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi sharoitida O'zbekiston mintaqalarining iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish va modernizatsiyalash masalalari;
- tuman tabiiy sharoiti va resurslarini ho'jalik jihatidan baholash;
- tuman aholisi va mehnat resurslari hamda ularning bandligini taxlili;
- tuman xo'jaligini tarmoq va hududiy tashkil etish hamda rivojlantirish masalalarini yoritish;
- tuman tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini takomillashtirish hamda istiqbolda samarali rivojlantirish imkoniyatlari bo'yicha ilmiy – amaliy tavsiyalarni berish.

Ishning **g'oyaviy uslubiy asosini** O'zbekistonning bozor iqtisodiyoti sharoitida rivojlanishini belgilovchi respublika Prezidenti I.A.Karimov tomonidan belgilangan asosiy tamoyillar hamda mintaqalar xo'jalik majmuini rivojlanish qonuniyatlari va ijtimoiy ishlab chiqarishni tashkil etish hamda samarali rivojlantirish borasidagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi yig'ilishlarining qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining yig'ilishi qarorlaridagi ko'rsatma va tavsiyalar tashkil etadi. SHuningdek, ishni yozishda respublikadagi yetuk iqtisodiy geografik olimlar – Z.M.Akramov, O.Otamirzaev, A. Soliev, A.Qayumov, H.Salimov, O.Abdullayev va boshqalarning ilmiy ishlaridan keng foydalanib, statistik, matematik, kartografik, grafik, kuzatish, taqqoslash, tizim, majmual va boshqa tadqiqot usullari bilan yoritishga harakat qilindi.

Bitiruv malakaviy ishi **kirish, ikkita bob**, oltita bo'lim, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro'yxatidan iborat bo'lib, 21 ta jadval hamda karta sxema bilan ta'minlangan va ishning umumiy jami 75 ta betdan iborat.

Bitiruv malakaviy **ishning asosiy** mazmuni Namangan Davlat universiteti professor-o'qituvchilari va talabalarining 2011 va 2012 yillardagi ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan. Ishning kirish qismida bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi, maqsadi, vazifasi, o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi va ahamiyati, g'oyaviy asosi va tadqiqot usullari yoritilgan.

Ishning **birinchi bobi** kichik hududlar (tuman) tabiiy va ho'jalik majmuining rivojlanishini geografik jixatidan tadqiq etishning nazariy – uslubiy masalalari hamda tuman

(kichik hudud) tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining omillari (geografik asoslar) va Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida iqtisodiyotni modernizatsiyalash va mintaqalarda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish masalalari yoritilgan.

Ishning **ikkinchi bobi** esa Mingbuloq tumani tabiiy sharoitini ho`jalik jihatidan baholash, aholisi va mehnat resurslari hamda iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga bag'ishlangan bo`lib, unda iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillari, ho`jaligi va uning tarmoq va hududiy rivojlanishini takomillashtirish masalalari ko`rib chiqilgan.

Xulosada Mingbuloq tumanining tabiiy va ho`jalik majmuini jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida modernizatsiyalash asosida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish masalalari bo`yicha tavsiyalar berilgan.

I-BOB. KICHIK HUDUD (TUMAN) RIVOJLANISHINING GEOGRAFIK ASOSLARI.

1.1 Tuman (kichik hudud) rivojlanishining geografik asoslari

Tuman tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining geografik asoslari uning tabiiy sharoitida (geografik joylanishi, maydonining katta va kichikligi, geologik rivojlanish xususiyati, seysmik holati, rel'efi, mineral xom ashyo resurslarining zahirasi, miqdori, turli tumanligi, joylashishi, iqlim, tuproq sharoitlari va suv resurslari bilan ta`minlanganlik darajasi, yaylov va o`tloqlarning mavjudligi), demografik jarfyonlarning rivojlanishi, mehnat resurslari va ularning sifati, moliyaviy resurslari va ho`jaligi, uning tarmoq hamda hududiy rivojlanish darajasi va boshqa ijtimoiy ishlab chiqarishni joylashishi hamda rivojlanishga ta`sir etuvchi tabiiy, iqtisodiy – ijtimoiy va ekologik imkoniyatlardan iborat. Bulardan tashqari, hudud iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga qaror topgan ijtimoiy – iqtisodiy tuzum va ishlab chiqarish munosabatlari, ijtimoiy – siyosiy vaziyat (turli urushlari, terrorizm va boshqalar) ham bevosita ta`sir etadi. Hudud iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining geografik asoslari qulay va ijtimoiy – siyosiy vaziyatlari barqaror bo`lgan mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyot darajasi, o`z navbatida, aholining turmush farovonligi yuqori bo`lishi muqarrar.

Ishlab chiqarish va uning tarmoqlari o`z – o`zidan, tasodifan hududiy joylashmaydi, balki ma`lum tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy shart-sharoitlar hamda omillarni hisobga olgan holda joylashtiriladi yoki hududiy tashkil etiladi. Bu omillarni yaxshi bilish mintaqa iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi, hududiy tarkibi va tizimining rivojlanish qonuniyatlarini o`rganishga asos bo`ladi.

Tabiiyki, mintaqa iqtisodiyotini rivojlanishi turli xil omil va sharoitlarga bog`liq bo`ladi. Xususan, ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirishda xom ashyo, yoqilg`i, elektr quvvati, suv va iqlim sharoitlari, mehnat resurslari, iste`mol va transport, iqtisodiy geografik

o`rin kabi omillar muhim ahamiyatga ega. SHuningdek, ekologiya, ilmiy-texnika taqqiyoti va bozor iqtisodiyoti omillarining bu boradagi roli ham oshib bormoqda.

Endi yuqorida ko`rsatilgan asosiy omillarga qisqacha to`xtalib o`tamiz.

Tabiiy sharoit va agroiklimiy resurslar .

Xo`jalikning barcha tarmoqlari, shuningdek, aholining joylashuvida tabiiy sharoitning roli katta. Bu borada ayniqsa yer, suv, harorat, tuproq kabilar muhim ahamiyat kasb etadi. Yerning ishlab chiqarishni joylashtirishdagi o`rni uning maydoni, katta kichikligi, geomorfologik xususiyatlari bilan tavsiflanadi.

Er jamiyat rivojlanishining eng qadimiy, eng birlamchi omilidir. Ksenofont(e.o.430-355y.y). “Yer insonni sog`lom, to`q va adolatli qiladi”, deb yozgan edi ingliz iqtisodiyoti va statistikasining asoschilaridan biri U.Petti (1623-1687 y) fikricha, mehnat boylikning otasi, er esa uning onasidir. Yana shuni ta`kidlash lozimki, agar er ko`pgina ho`jalik tarmoqlari – sanoat, transport va boshqalar uchun oddiy sharoit sifatida xizmat qilsa, u qishloq ho`jaligida bebaho boylik, muhim resurs hisoblanadi.

Suv resurslarning ham ahamiyati ko`p funktsiyali. Sanoatda suv va issiqlik elektr stantsiyalari, qora va rangli metallurgiya, tselyuloza – qog`oz, gidroliz, sintetik tola ishlab chiqarishda, to`qimachilikda ko`p sarflanadi (ayoim ma`lumotlarga ko`ra, sanoat butun halq xo`jaligida sarflanadigan suvning 40 foizini iste`mol qiladi) Masalan, 1 tonna sintetik tola ishlab chiqarish uchun 2000 m³, 1 tonna ip gazlamasiga 1260 m³, 1200 ming kv quvvatga ega bo`lgan issiqlik elektr stantsiyasi uchun esa 1200 mln³ suv sarflanadi. Demak, bu va shunga o`xshash sanoat korxonalarining suv sig`imi juda yuqori. Mazkur omilning qishloq xo`jaligi va ayniqsa, sug`orma dexqonchilikdagi o`rni yanada yuqori va an`anaviyroq. Issiq iqlim sharoitida sanoat korxonalarini ochiq usulda qurish, suv va boshqa alkogolsiz ichimliklar, ip gazlama ishlab chiqarishga o`xshash tarmoqlarni ko`proq rivojlantirish talab etiladi. Ob-havo va iqlim transportning ko`pgina turlarini rivojlantirish va joylashtirishga xam ta`sir qiladi. SHuningdek, tabiiy geografik sharoitlar rekreatsiya va turizm sohalarini tashkil etishda ham katta ahamiyatga ega.

O`zbekiston Respublikasining yer boyligi ancha katta (maydoni 448.9 ming kv km) Mingbuloq tumani maydoni 56304 ga, shunday qishloq ho`jaligi yaroqli 35542 ta. Uning iqlim sharoitlari ham qulay-ba`zi qishloq xo`jalik mahsulotlarini bir yilda 2-3 marta xosilini olish mumkin. Biroq, qishloq xo`jaligida mavjud yerlardan unumli foydalanish uchun irrigatsiya va meleoratsiya, agroinfrastruktura tizimini rivojlantirish, ekologik muammolarni hal qilib berish talab etiladi.

Xom ashyo omili. Tabiiyki, mahsulot xom ashyosiz yaratilmaydi. Ammo, ayrim mahsulotlarni olish uchun xom ashyo boshqalariga qaraganda ko`proq sarflanadi. SHuning uchun bunday mahsulotlarni ishlab chiqarishga iqtisoslashgan tarmoqlar va korxonalar mumkin qadar xom ashyo rayonlariga yaqin joylashtiriladi.

Mineral o`g`itlar ichida kaliy o`g`itini ishlab chiqarish geografiyasi batamom xom ashyo omili bilan belgilanadi, chunki uni olish uchun ko`p miqdorda kaliy tuzi sarflanadi. Ayni payda azot (selitra) o`g`itini ishlab chiqaruvchi korxonalar ancha erkin joylashadi. Bunday korxonalar qora metallurgiya markazlariga, suv manbalariga yaqin neft va gaz sanoati rivojlangan rayonlarda o`rnatilishi ham mumkin. Fosfor o`g`iti ishlab chiqaruvchi korxonalar xom ashyo va iste`mol rayonlarida joylashtiriladi. Xom ashyo sifatida apatit, fosforitlar xizmat qiladi. SHuningdek bu o`g`itni ishlab chiqarishda oltingugurt kislotasi ham talab etiladi. SHu bois ular rangli metallurgiya markazlarida ham tashkil etiladi.

Xom ashyoga ko`proq asoslangan sanoat tarmoqlarining joylashtirilishini o`rganish, eng avvalo mamlakat tabiiy sharoiti va boyliklari bo`lishini talab etadi. Turli xil qazilma boyliklarning ma`lum hududdagi birligi bu yerda ishlab chiqarishni kompleks tashkil qilishga, hududiy majmualarni shakllantirishga, ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish samaradorligini oshirishga sabab bo`ladi

YOqilg`i, issiqlik elektr stantsiyalari uchun hamda qora metallurgiya stantsiyalarining dastlabki – cho`yan eritish bosqichining joylashtirilishida asosiy rol o`ynaydi.

elektr energetika omili hozirgi zamon ishlab chiqarishni elektr quvvatsiz tasavvur qilish qiyin. Ushbu sohaning o`ziga xos xususiyati shundaki u yaratgan maxsulotni, ya`ni elektr quvvatining jamg`arib, omborlariga yig`ib bo`lmaydi, undan ayni paytning o`zida, sinxron ravishda foydalanish kerak. Bundan tashqari, elektr quvvati yuqori kuchlanishli elektir tarmoqlari orqali uzoq masofalarga ham uzatilishi mumkin.

Odatda elektr quvvati omilini ishlab chiqarishning hududiy tashkil etilishida eng avvalo uning arzon xillariga urg`u beriladi. Arzon elektr quvvati suv stantsiyalaridan olinadi, chunki suv suvligicha GES dan keyin ham qolaveradi, issiqlik elektr stantsiyalarda esa ko`mir, mazut yoki tabiiy gaz tamomila sarflanadi.

Elektr quvvati omil sifatida bir qator sanoat tarmoqlarini o`z atrofida yig`adi. SHu sababli, u katta yoki yirik rayon va hududiy majmua hosil qilish qudratiga ega. Bizning sharoitimizda elektr quvvati yangi yerlarni o`zlashtirish uchun ham kerak. Jumladan, Qarshi dashtining asosiy qismi Tolimarjondagi bir qator nasos stantsiyalari vositasi bilan sug`oriladi. Elektr quvvati Norek Tursunzoda – G`uzor orqali keladi. Hozirgi kunda esa shu yerning o`zida juda yirik, mahaliy tabiiy gaz asosida ishlaydigan Tolimarjon IESi qurildi.

Respublikamizda bulardan tashqari Sirdaryo, Angren, Toshkent, Navoiy, Taxiatosh IESlari, Andijon, CHorvog`, Xojikent, Tuyamo`yin va boshqa GES lar mavjud. Ular yiliga 50 mlrd kVt soatdan ko`proq elektr energiyasini ishlab chiqaradi. Bu esa rangli metallurgiya, kimyo kabi “energiya-talab” tarmoqlarini rivojlantirishga imkon beradi.

Ijtimoiy – iqtisodiy omillar ichida eng muhim **aholi** va **mehnat** resurslaridir. Albatta, har qanday ishlab chiqarish jarayoni ishchi kuchisiz sodir bo`lmaydi. Ammo bu o`rinda ikki holni qayd etish lozim: birinchidan shunday korxonalar borki, ularga son jixatdan ko`p ishchi kerak. Masalan, tikuv fabrikasi, konserva zavodi, paxta yetishtirish, uni qayta ishlash korxonalarining mehnat sig`imi katta va h.k. Ayni bir paytda boshqa bir korxonalarga mehnat resurslarining miqdori ko`p bo`lishi shart emas, aksincha “oz bo`lsa ham soz bo`lsin” ma`nosida ularga malakali, ya`ni sifatli ishchi kuchi talab qilinadi. Mazkur korxonalar va tarmoqlar radio yoki priborsozlik, aniq mashinasozlik va shunga o`xshash, odatda, malakali ishchi kuchi mavjud bo`lgan shaxarlarda joylashtiriladi. Bundan ilm talab korxonalarini tashkil etishda ba`zi rivojlangan mamlakatlarda maxsus texnopolis va fan shaharlari yaratiladi.

Transport omili juda muhim, chunki u ishlab chiqarishning bevosita davom ettiruvchi tarmoq hisoblanadi. Transport infrastrukturasi bo`lmasa xom ashyo ham keltirilmaydi, mahsulot ham iste`molchilarga yetkazilmaydi, hududiy mehnat taqsimoti rivojlanmaydi. SHuning uchun transportning ahamiyati barcha boshqa omillar ta`siri bilan qo`shilib, uyg`unlashib ketadi va uni “sof” holda ajratib olish qiyin. SHu bilan birga transport masalasi iqtisodiy geografik o`rin omili bilan ham chambarchas bog`liq. Zero, bu o`rin ob`ektning, eng avvalo, tashqi iqtisodiy munosabatlarini anglatadi.

Ishlab chiqarishni joylashtirishning “qulayligi” ko`p jixatdan transportga bog`liq, uning arzonligi esa asosan transport xarakterlarining kamaytirilishi demakdir. SHuning uchun ham ishlab chiqarishni joylashtirishdagi klassik g`oyalar I.Tyunenning qishloq xo`jaligi shtandorti, A.Veberning sanoat shtandorti, V. Kristallerning “markaziy o`rinlari”, A.Lyoshning “iqtisodiy landshaftlarini” transport omilisiz tasavvur qilib bo`lmaydi.

Ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirishda **ilmiy-texnika** taraqqiyotining ahamiyati ham juda yuqori. Ushbu omilning ta`siri bir qator tarmoqlarni hududiy tashkil etilishida aniq va ravshan ko`rinadi. Masalan, “ilm talab” mashinasozlik zavodlari yuksak darajada fan texnika salohiyatiga ega bo`lgan yirik shaharlarda joylashtiriladi.

YUqorida ko`rilgan omillarning ishlab chiqarishni hududiy tashkil qilishga ta`siri ularning barchasi “**ekologik omil**” bilan muvofiqlashtirilishi kerak. Zotan, vujudga kelgan vaziyat buni qat`iylilik bilan talab etadi.

Ekologik jihatdan va eng avvalo kimyo, tsellyuloza – qog`oz, go`sht, vino, konserva, charm zavodlari, issiqlik elektrostantsiyalari “nomaqbul” hisoblanadi. Binobarin, ular aholi joylashgan markazlardan uzoqroq bo`lgani yaxshiroq.

Ekologik omilning ishlab chiqarishning hududiy tashkil etishiga ta'sirini kimyo sanoati misolida ko'rish ayniqsa namunaviydir, chunki bu sanoat korxonalarini joylashtirilishi juda erkin xususiyatga ega. Sababi ular o'simlik, hayvonot, mineral xom ashyosi, suv, havo asosida, boshqa sanoat chiqindilari (qora va rangli metallurgiya) negizida ham rivojlanishi mumkin.

Hozirgi kunda **infrastruktura** tizimining mavjudligi ishlab chiqarishni hududiy tashkil qilishda katta rol o'ynaydi. Yo'l, yer osti va yer usti qurilmalari, elektr uzatuvchi shaxobchalar, turar joy, maishiy xizmat ko'rsatish ob'ektlari muxayo bo'lgan joylar yangi ishlab chiqarishni, qo'shma korxonalarni o'ziga jalb qiladi. Xorijda bunday joylarni sanoat parki deb atashadi.

O'tish davrida ayniqsa, bozor infrastrukturasi ahamiyati katta. Bozor iqtisodiyotining o'zi esa ishlab chiqarishni joylashtirishda xal qiluvchi omildir. Sababi bozortalab sohalargina rivojlanadi; bozori chaqqon maxsulotlarni ishlab chiqargan tadbirkorlar yengadi.

Bozor (talab va taklif), erkin raqobat, u yoki bu maxsulot ishlab chiqaradigan makonni, bozor muhiti belgilaydi. SHu bois, talabning nafaqat miqdor jixatdan o'sib borishini balki uning xususiyatlarini, sifatini e'tiborga olish, ixcham, xarakatchan boshqarishi oson bo'lgan kichik va o'rta korxonalarni joylashtirilishi o'tish davri uchun ayniqsa xosdir. Bu davrda vaqt va makondan unumli foydalanish o'ta zarur.

Hozirgi vaqtda qulay investitsiya makonni yaratish ham katta mazmun kasb etadi. Infrastruktura va boshqa sharoitlarning mavjudligi, huquqiy va tashkiliy masalalarning hal etayotganligi, kafolatlanganligi xorijiy sarmoyadorlarning kirib kelishiga qulaylik yaratadi.

1.2 Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi sharoitida mintaqa geografik asoslarni modernizatsiyalash va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish

Bitiruv malakaviy ishining ushbu bo'limi Prezident I.A.Karimovning "2009 yilning yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustivor yo'nalishlari"ga bag'ishlangan Vazirlar Maxkamasining majlisi hamda 2010 yil 13 noyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatning qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik isloxlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi" hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi mahruzasi (2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi) mahruzasi asosida tayyorlandi.

Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi sharoitida iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha, birinchi navbatda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, koperatsiya aloqalarini kengaytirish, mustahkam hamkorlikni yo'lga qo'yish, mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga ichki talabni rag'batlantirish masalalari alohida o'rin tutadi. SHuningdek, mamlakatimizning barcha mintaqalaridagi mavjud tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa omillardan oqilona hamda samarali foydalanish va bu omillarni ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini modernizatsiyalash dolzarb masaladir. Sanoat ishlab chiqarishida barcha korxonalarni ilg'or va zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash va shu asosda mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish hamda sifatini takomillashtirishga erishish zarur. Qishloq ho'jaligida esa ekin maydonlarining aglomerativ holatini yaxshilash tuproqning unumdorligini oshirish choralarini ko'rish, dehqonchilikda ekinlarning serhosil va erta pishar navlarini joriy etish, chorvachilikda zotli chorva mollari sonini ko'paytirish lozim. Respublika mintaqalarining tabiiy va boshqa imkoniyatlarini e'tiborga olib qishloq ho'jaligida asalarichilik, baliqchilik va darrandachilik tarmoqlarini rivojlantirish ayni mudaodir. Bu ishlarning amalga oshirilishi mamlakat mintaqalarida ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, aholi bandligini ta'minlaydi va turmush farovonligini yuksaltiradi. Albatta, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini modernizatsiyalash moliyaviy qo'llab-quvvatlashni talab etadi.

Davlat tomonidan qo'llab – quvvatlash maqsadida 50 ta korxonaning byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalarga to'lovlar bo'yicha muddati o'tgan xamda joriy kreditor

qarzdorligi qayta ko`rib chiqildi. Bu mazkur korxonalar tassarrufida 350 milliard so`mdan ortiq mablag`ni qoldirish, ularning ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirish imkonini beradi. Hisobot davrida sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarilayotgan maxsulot tannarxi 18 foizga, Olmaliq konmetallurgiya kombinati, “O`zmitkombinat” aksiyadorlik ishlab chiqarish birlashmasi “O`Zeltexsanoat” uyushmasi, “O`zqurilish materiallari” kompaniyasi singari va boshqa korxonalar hamda tarmoqlarda 20-25 foizga kamaydi.

Ma`lumki, past rentabelli va iqtisodiy nochar korxonalarni tugatish va bu jarayonga tijorat banklarni jalb qilishga qaratilgan ishlar korxonalarining moliyaviy barqarorligini oshirishda muhim rol o`ynaydi.

Mamlakatimiz bo`yicha yirik korxonalarni ham qo`shganda, jami 240 ta korxonalar bankrot deb e`lon qilindi. Ayni paytda ularning 154 tasi yangi mulkdorlarga sotildi, 86 tasi esa tijorat banklari balansiga o`tkazildi.

Bugungi kunda tijorat banklari balansiga o`tkazilgan 70 ta iqtisodiy nochar korxonada ishlab chiqarish to`liq qayta tiklanib, istiqbolli sarmoyadorlarga sotildi, qolganlarida moliyaviy sog`lomlashtirish ishlari olib borilmoqda.

Neft – gaz uskunalari, kimyo sanoati maxsulotlari, avtomobilsanoati uchun butlovchi qismlar va boshqa 120 dan ortiq yangi turdagi maxsulot ishlab chiqarish yo`lga qo`yilib, ikki mingga yaqin yangi ish o`rin yaratilgan.

Mahsulot eksport qiladigan korxonalarni qo`llab-quvvatlash bo`yicha ko`rilgan chora-tadbirlar natijasida ularning barqaror ishlashini ta`minlashga, 2009 yilda eksport hajmini 2.4 foizga oshirishga erishdik.

Iqtisodiy o`shishni ta`minlash, yangi ish o`rinlarini tashkil qilish, bandlik muammosini hal etish aholining daromadlari va farovonligini oshirishda tobora muxim o`rin tutayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, rag`batlantirish va qo`llab-quvvatlashga alohida e`tibor qaratildi.

Hozirgi kunda kichik biznes sub`ektlari yalpi ichki maxsulotning qariyb 50 foizini ishlab chiqarmoqda. Xolbuki, 2000 yilda bu ko`rsatkich 30 foizni tashkil etgan edi. Bunday natija birinchi navbatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik davlat tomonidan doimiy qo`llab-quvvatlanayotganligini samarasidir.

Investitsiya dasturi va texnik modernizatsiyalash bo`yicha tarmoq dasturlari doirasida 2009 yil mobaynida 690 ta investitsiya loyihasi amalga oshirildi. Ularning 303 tasi muvoffaqiyatli yakunlandi.

Respublikamizda jami 22 ta yirik ishlab chiqarish ob`ekti, jumladan neft – gaz, kimyo, metallurgiya sanoatida 8 ta, mashinasozlik sanoatida 9 ta va qurilish industriyasida 5 ta ob`ekt foydalanishga topshirildi.

O`tgan yili “Farg`onaazot” va “Maksam CHirchiq” korxonalarida amiak agrigatlarini rekonstruksiya qilish, Namangan shahrida yengil avtomobillar uchun fara va chiroqlar chiqaradigan zavod, Buxoro shahrida “DEU tekstil” to`qimachilik kompleksi qurilishi kabi strategik loyihalar nihoyasiga etkazildi. “Gazli” qo`shma kompressor stantsiyasi ishga tushirildi, shuningdek, “Qo`ng`irot” kompressor stantsiyasida kuniga 35 ming kub metr gazni quritadigan inshoot barpo etildi.

Turkmanistondan O`zbekiston hududi orqali Xitoyga o`tadigan gaz quvirini tortish ishlari yakunlandi. Bu o`z navbatida mamlakatimizning tranzit imkoniyatlarini yanada kengaytirdi.

Bundan tashqari, hududlarimizda, avvalo, qurilish materiallari sanoati, oziq-ovqat, yengil sanoat va boshqa tarmoqlarda kichik biznes sohasida faoliyat olib boradigan 480 dan ortiq yangi ishlab chiqarish korxonalari tashkil etildi.

SHuni alohida ta`kidlash lozimki, bir nechta kichik stantsiyalar o`z ichiga olgan “yangi-Angren- O`zbekiston” LET -500 elektr uzatish liniyasi, qamchiq dovoni orqali o`tadigan 165 km lik “Ohangaron-Pungon” magistral gaz quvuri, “G`uzor- Surxon” yuqori vol`tli elektr uzatish linyasini qurish bo`yicha strategik investitsiya loyihalarini amalga oshirish natijasida mamlakatimizda yagona elektr va gaz tarmog`i tizimlarini tashkil etish ishlari asosan yakunlandi.

Bu esa Farg'ona vodiysi va O'zbekiston janubida yashaydigan aholini tabiiy gaz va elektr energiyasi bilan ishonchli ta'minlash, shuningdek, elektr energiya eksport qilinishi sezilarli ravishda oshirish imkonini berdi.

O'tgan yilda 217 kilometrlik avtomobil yo'li foydalanishga topshirildi. 535 kilometr yo'l va 19 ta ko'prik kapital ta'mirlandi. Bu ishlarni amalga oshirish uchun Respublika yo'l jamg'armasi hisobidan 280 milliard so'mdan ortiq mablag' yo'naltirildi.

Mamlakatimiz temir yo'l transport tizimini rivojlantirish va moder nizatsiya qilish bo'yicha ishlar davom ettirildi. "Guzor-Boysun-Qumqurg'on" yangi temir yo'l linyasida Yaponiya kapitali ishtirokida 5 ta ko'prik foydalanishga topshirildi.

"Navoiy –Uchqud-Sulton Uvaystog'-Nukus" temir yo'l linyasining 6 ta yangi raz'ezdi ishga tushirildi. Temir yo'llarni elektrlashtirish, temiryo'l lokomotivlari parki va harakatdagi tarkibini yangilash loyihalarini amalga oshirish ishlari boshlandi.

2009 yil Navoiy viloyatida tashkil etilayotgan erkin industrial- iqtisodiy zonaning asosiy ob'ektlardan biri sifatida Navoiy shahri aeroporti bazasida xalqaro yuk tashishlar bo'yicha intermodal markaz qurilishi yuzasidan katta ishlar amalga oshirildi va nihoyasiga etkazildi.

Yangi bir ustivor yo'nalish yerlarning meliorativ holatini yaxshilash dasturini amalga oshirish doirasida 2009 yilda 840 kilometrlik kolektor- trinaj tarmoqlari, 250 ta drenaj quduqlar, 15 ta memoratstsia nasos stantsiyalari va inshoatlari qurildi hamda rekonstruktsiya qilindi. O'tagan yili erlarning meliorativ holatining yaxshilashga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish uchun 130 milliard so'm mablag' yo'naltirildi. Natijada 240 ming gektardan ortiq sug'oriladigan yerlarning meliorativ holati yaxshilandi.

2009 yilda inqirozga qarshi choralar dasturi doirasida amalga oshirilgan chora - tadbirlar samaradorligi haqida gapirganda: ularning avvalo eng muxim masalalarga yangi ish o'rinlarini yaratish va aholimizning turmush darajasini yanada oshirishga yo'naltirilganini alohida qayd etish zarur. O'tgan yili ko'rilgan amaliy choralar natijasida mamlakatimizda 940 mingdan ziyod yangi ish o'rinlari yaratildi, ularning 500 mingga yaqini qishloq joylarida tashkil etildi. Kichik biznes sohasida 390 mingdan ziyod, shu jumladan, xizmat ko'rsatish sohasida 270 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari ochildi.

2009 yilda O'zbekistonda yalpi ichki maxsulotning o'sishi 8.1 foizni tashkil etadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 9.0 foizga ko'paydi, qishloq xo'jaligidagi o'sish 5.7 foizni tashkil etadi, chakani savdo aylanmasi 16.6 foiz, axoliga kunlik xizmat ko'rsatish 12.9 foizga oshdi. SHuni alohida ta'kidlash kerakki, o'tgan yili yuzaga kelgan murakkab iqlim sharoitiga qaramay, mamlakatimizda ilk bor 7.3 million tonnadan ortiq don, shu jumladan, 6 million 600 ming tonna bug'doy etishtirildi, 3.4 million tonna paxta xom ashyosi tayyorlandi.

2010 yilda ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishning eng muhim maqsadi va asosiy ustivor vazifasi - bu islohatlarni davom ettirish va chuqurlashtirish, mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish. 2009 – 2012 yillarga mo'ljallangan inqirozga qarshi choralar dasturini so'zsiz bajarish va shu asosda iqtisodiy rivojlanishning yuqori va barqaror suratlarini, samaradorligini hamda makroiqtisodiy muvozanatini ta'minlashdan iboratdir.

Yurtimiz salohiyatining tobora yuksalib borayotgan, so'ngi yillarda ishga tushirilgan yangi zamonaviy infratuzilmaning rivoji, tizimli ravishda amalga oshirilayotgan islohatlar va iqtisodiyotning erkinlashtirilishi, mamlakatimizda yaratilgan nihoyatda qulay investitsiya muhiti bizga 2010 yilda quydagi rejalarni belgilashga asos beradi.

Yalpi ichki maxsulot va sanoat mahsulotlarini 108.3 foizga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini 105 foizga oshirish, iqtisodiyotga investitsiya kiritish xajmini yalpi ichki maxsulotga nisbatan 30 foizga etkazish ko'zda tutilmoqda. Maxsulot eksportini 8.5 foizga oshirishni ta'minlash yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan tayyor maxsulot ulushini oshirish hisobidan o'zgartirish vazifasi qo'yilmoqda. Bularning hamasi aholi turmush farovonligini yuksaltiradi.

1.3 Tuman (kichik hudud) geografiyasini tadqiq etishni nazariy-uslubiy masalalari.

Geografiya tabiat va jamiyat hodisa hamda jarayonlarning borishi, ularning o'zaro aloqada rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish bilan shug'ullanadi. Tabiiy va ijtimoiy jarayonlar, ularning komponentlaridagi o'zgarishlar hamda o'zaro aloqada rivojlanishning makon (yer shari va uning qismlari) va zamonda tadqiq qiladi. SHuning uchun bo'lsa kerak ko'xna va sevimli geografiyaning o'rganish ob'ekti bo'lib katta hududlarni (mamlakat tabiiy va iqtisodiy rayon, viloyat, qolaversa hududi kattaroq tuman) o'rganish ananaga aylanib qolgan. To'g'ri katta hududlarni tabiiy va iqtisodiy geografik jixatdan o'rganish asosida muammolarni ochish va ularni yechimi uchun umumiy holdagi ilmiy-amaliy tavsiyalar berish birmuncha osonroq. SHubxasiz, ko'lam kattaroq hududlarda tabiiy ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarni kuzatish, materiallar (statistik) to'plash va taxlil qilish uncha murakkab kechmaydi. Buning ustiga ilmiy-tadqiqot (nomzodlik yoki doktorlik) ishlari ob'ektining ko'lam kattaroq (respublika, viloyat, tuman hududi yoki yirik shaxar) bo'lishini talab qilinadi. Vaholanki, har qanday muammo u hududiy (geografik) yoki ekologik, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy bo'lishidan qat'iy nazar, ko'proq kichik hududlar (xonadon, mahalla, qishloq va h.k) doirasida yuzaga keladi. O'z navbatida har bir katta hudud qator kichik hududlar tizimida tashkil topadi.

Binobarin, kichik hududlar doirasidagi biror iqtisodiy geografik muammolar katta hududlar o'z aksini topadi. SHuning uchun katta hududlar bilan birga kichik hududlarni tadqiq etish hozirgi zamon geografiya fanining oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Zero, bozor iqtisodiyoti turli shakldagi mulkchilikka asoslangan iqtisodiy jarayon bo'lgani uchun har bir mulkdor o'z tasarrufidagi hududdan ko'proq foyda olish maqsadida uni ham tabiiy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan bilishni istaydi.

Bu ehtiyojni esa geografiya fani va uning mutaxassisleri qondirishi mumkin. Mashhur rus iqtisodchi – geografi N.N. Baranskiy o'tgan asrning 50-60 yillarida ta'kidlaganidek, xalq ho'jaligi va uning tarmoqlarini o'rganish bilan shug'ullanaverib "Biz insonni o'rganishni unutdik", deb afsuslanganidek, katta hududlarni o'rganishga e'tiborni ko'chaytirib, kichik ko'lamdagi hududlarni tadqiq etishni "unitish" geografik tadqiqotlarda chekinishga olib kelishi muqarrar. SHuning uchun rivojlangan mamlakatlar tajribasiga suyangan holda, kichik hududlarni ham tabiiy, ham iqtisodiy geografik (masalan oila iqtisodiyotining hududiy tafovutlari, fermer xo'jaligini tashkil etishning geografik xususiyatlar va h.k) jihatdan o'rganish asosida ulardagi mavjud muammolarni bartaraf etishning aniq tavsiyalarini berish muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Xo'sh, kichik hududlarga qanday ko'lamdagi yerlar kiradi, ularning iqtisodiy geografiyasini mohiyati nimalardan iborat. Kichik hududlarga ko'p qavatli binolardagi alohida olingan xonadon, hovlilil uy, kichik korxonalar, fermer ho'jaliklari, korxonalar va muassasa hamda tashkilotlardan tortib to mahalla, qishloq fuqorolar yig'inlari, 50-100 ming aholiga ega bo'lgan kichik va o'rta shaharlar hamda tuman hududlari kiradi.

Kichik hududlarning ko'lamiga ko'ra quyidagicha tasniflanadi.

Eng kichik hudud- bu guruhga ko'p qavatli binodagi xonadonlar, hovli uy, kichik korxonalar, ijara va pudrat xo'jaliklarining maydonlari kiradi.

Kichikroq hudud – fermer va fermer uyushmasi xo'jaliklari (MTP), qishloq hamda mahalla fuqarolar yig'inlarining hududlarini o'z tarkibiga oladi.

Kichik hudud bunga – 50-100 ming aholiga ega bo'lgan kichik va o'rta shaharlar hamda tuman hududlari kiradi.

Kichik hududlarning geografik jixatlarini (xususiyatlari, qirralari) ochib berish bevosita tadqiqotchining geografik tafakkuri, qolaversa uning maxoratiga bog'liq. Darxaqiqat, tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonunlari haqida bilim beruvchi tabiiy va ijtimoiy gumanitar fanlar bilimlaridan boxabar bo'lgan geografagina kuchli geografik taffakur sohibi bo'lish nasib etadi.

Darvoqe, geografiya mutaxassisleri tayyorlovchi oliy o'quv yurtlarining o'quv rejalari bo'yicha fizika, matematika, kimyo va biologiya kabi tabiiy fanlar hamda ona tili, tarix, falsafa, iqtisodiyoti, pedagogika, psixologiya va boshqa ijtimoiy gumanitar fanlarning o'qitilishi bejiz emas. Bu fanlar yer va yer haqidagi bilimlarni mukkamallashtiradi hamda geografik taffakurning shakllanishi va boyishiga asos bo'ladi.

Kichik hududlarning geografik taʼrifi eng kichik hududlar – koʻp qavatli binolardagi xonadonlar, hovlilari uy yoki ijari va pudrat xoʻjaliklari erlarini oʻrganishdan boshlanadi. Koʻp qavatli binodagi xonadonning (kvartira) iqtisodiy geografik jihatlar nimalardan iborat? eng avvalo, uning geografik oʻrni (joylashishi), yaʼni binoning tekislik, togʻ yon bagʻri, daryo yoki dengiz boʻyi, avtomobil yoki temir yoʻllari chorrahasi, qirgʻogʻi (boʻylar), nechanchi qavat hamda ufqqa (gorizont tomonlariga) nisbatan joylashishi bilan izoxlanadi.

Oʻzbekiston sharoitida katta va yirik shaharlar axolisining 60-70 foizi koʻp qavatli, asosan 4-5 qavatli binolarda yashaydi. Koʻp hollarda shahar fuqarolariga murojaat qilib “Siz qaysi qavatdagi xonadonda yashashni hohladingiz?”, deb soʻralsa, ular aynan 2-3 qavatlarda yashash istagini bildiradilar. Nimaga deb soʻrasangiz, ular 1 qavatga nisbatan 2-3 qavatdagi xonadonlarning havosi bir muncha toza, musaffo va quruq hamda turli shovqinlardan biroz holi va 4-5 qavatlardagi xonadonlarga nisbatan 2-3 qavatlarda suv taʼminoti yaxshi. Bundan tashqari, 4-5 qavatlardagi xonadonlar yozda issiq, qishda bir oz sovuq, - deb 2-3 qavatlardagi xonadonlarning qulay imkoniyatlari haqida oʻz fikrlarini bildiradilar. Xatto, fuqarolar xonadonlarning gorizont tomonlariga nisbatan joylashishiga ham eʼtibor beradilar. Chunki, janub va sharq tomonlarga qarab turgan xonadonlar havosi doimo musaffo va quruq, shimol va gʻarb tomonlarga qarab turgan xonadonlarning xavosi bir oz salqin va yuqori bosimli boʻladi. Bunday xonadonlarda yashovchi kishilarda bod xastaligi koʻproq uchraydi. Anashu qulayliklarga koʻra 2-3 qavatlardagi xonadonlarning xarid narxi ham bir muncha yuqori boʻladi. Ajdodlardan avlodlarga meros boʻlib, kelgan kishilarning xayot tajribasi shuni koʻrsatadiki, ular oʻzlarining faoliyatlari davomida joyning geografik xususiyatlarini eʼtiborga olib xoʻjalik ishlarini yuritganlar. Ular hududni quyoshga nisbatan joylashishi (ekspozitsiyasi), relʼefi, tuprogʻining unumdorlik darajasi, er osti suvining joylashishi, doimiy esadigan shamolning yoʻnalishi, gidrografik tarmoqlari, turli transport yoʻllariga nisbatan joylashishi va boshqa geografik omillarni xisobga olib xoʻjalik tarmoqlarini rivojlantiradilar.

Aholisi zich joylashgan Fargʻona vodiysida har bir kv km ga oʻrtacha qariyb 430, Andijon viloyatida esa 622 kishi toʻgʻri keladi. Atrofi toʻrt devor bilan oʻralgan 0,10 yoki 0,15 ga hovlilari xonadonlarda yashayotganlar geografik xususiyatlarni eʼtiborga olib dehqonchilik ekinlarini yetishtiradilar va uy quradilar.

Kichik hududlarning geografik qonuniyatlarini chuqur oʻrganmasdan turib xoʻlik yuritish kutilgan natijani bermaydi. Natijada turli shakldagi mulkchilikka asoslangan bozor iqtisodiyoti sharoitida oʻsha hududda xoʻjalik yurgizayotgan mulkdorni iqtisodiy inqirozga olib keladi. Xatto, yonma-yon joylashgan va bir xil tabiiy – iqlim hamda suv sharoitidagi ekin maydoniga ega boʻlgan xoʻjaliklarda ikki xil iqtisodiy koʻrsatkichlarga erishiladi. Birida kutilgan reja bajarilsa, ikkinchisida uddalanmay qoladi. Albatta, buning zaminida oʻsha ekin maydonining agromeliorativ xolati, dehqonning bilim va tajribasi kabi omillar bilan bir qatorda geografik xususiyatlarni obdon bilmaslik yotadi.

Kichik hududlarning geografik xususiyatlarini tadqiq etish maqsadi mazkur malakaviy ishida Namangan viloyatining Mingbuloq tumani geografiyasi oʻrganiladi.

II-BOB. Mingbuloq tumani geografiyasi

2.1. Tabiiy sharoiti va resurslari

Mingbuloq O'zbekiston Respublikasining Namangan viloyatidagi tuman hisoblanadi. Tuman Farg'ona vodiysining markazida-Sirdaryoning chap sohilida joylashgan bo'lib, u shimol tomondan viloyatning CHust va To'raqo'rg'on tumanlari, shimoli-sharqdan Namangan tumani, sharq tomondan Andijon viloyatining Ulug'nor tumani, janub tomondan Farg'ona viloyatining Yozyovon tumani, janubi-g'arb tomondan Farg'ona viloyatining Buvayda tumani va g'arb hamda shimoli-g'arbdan Namangan viloyatining Pop tumani bilan chegaradosh. Maydoni-0,74 ming kv.km. Viloyatning tumanlari orasida hududining kattaligi jihatdan Pop va CHust tumanlaridan keyingi uchinchi o'rinda turadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Prezidiumining 1952 yil 16 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi tarkibida yangi tumanlar tuzish" haqidagi №173-sonli farmoniga binoan Halq deputatlari Namangan viloyat Kengashi ijroiya Qo'mitasining cho'l yerlarida markazi "Gulbog'" ho'jaligi bo'lgan Zadaryo tumanini tuzish haqidagi iltimosi qondirildi va Zadaryo tumani tashkil topdi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Prezidiumining farmoniga ko'ra Zadaryo tumanining ma'muriy markazi Jomashuy qishlog'i deb o'zgartirildi. Zadaryo tumani tarkibiga quyidagi qishloq kengashlari kiritildi:

1. Pop tumanidagi Nayman, Yakkatut, Mehnatobod qishloq kengashlari va Gulbog' xo'jaligi hududlari.
2. To'raqo'rg'on tumanidagi Momoxon, Gurtepa, Dovduq va Jomashuy qishloq kengashlari hududlari.

1959 yilning dekabrda Zadaryo tumani To'raqo'rg'on tumaniga birlashtirildi. 1962 yili esa To'raqo'rg'on tumani tarkibidagi Zadaryo hududi Namangan tumaniga qo'shib yuborildi va Namangan tumani deb nomlandi. Markazi esa Jomashuy qishlog'i bo'ldi. 1964 yilning 22 fevralida yana Zadaryo tumani qaytadan ajralib chiqdi. Markazi Jomashuy qishlog'i bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyin, 1995 yilning yanvaridan boshlab Zadaryo tumaniga Mingbuloq nomi berilib, uni "Mingbuloq tumani",- deb ataldi va markazi Jomashuy shaharchasi qilib belgilandi.

Bugungi kunda tuman tarkibida 7 ta qishloq fuqarolar yig'ini va Jomashuy shaharchasi mavjud, ular: Momaxon, Dovduq, Gulbog', Mehnatobod, Oltinko'l, Gurtepa, va Bo'ston qishloqlari fuqarolar yig'ini. Tumandagi qishloq fuqarolar yig'ini hududi 57 ta qishloq mahalla qo'mitalariga bo'linadi.

Mingbuloq tumani hududining yuzasini tuzilishi (past, balandliklar, qumtepaliklari, ularni tashkil etgan tog' jinslari-qumlar, qumloqlar, turli tipdagi tuproqlar va hokazo) uning **geologik** taraqqiyoti bilan bog'liq. O'z navbatida, tuman hududining geologik tuzilishi Farg'ona vodiysining geologik rivojlanishi tarixi bilan bevosita bog'liq. Geologik tadqiqotchilarning (yer tarixini o'rganuvchilar) fikriga ko'ra, Farg'ona vodiysi geologik-tektonik taraqqiyoti 3 ta asosiy bosqichni (davr) bosib o'tgan.

A) Paleozoy erasi-330 million yilni o'z ichiga oladi va o'z navbatida quyidagi davrlarga bo'linadi:

1. Kembriy davri.
2. Ordovik davri
3. Silur davri

4. Devon davri
5. Toshko`mir davri
6. Perm davri

B) Mezozoy erasi 115 mln. yilni o`z ichiga oladi va quyidagi davrlarga bo`linadi:

1. Trias davri
2. Yura davri
3. Bo`r davri

V) Kaynazoy erasi 67 mln. yilni o`z ichiga oladi va quyidagi davrlarga bo`linadi.

1. Paleogen
2. Neogen
3. To`rtlamchi davr

Paleozoy erasining ikkinchi yarmida (bundan 345-350 mln. yil muqaddam) sodir bo`lgan Gertsin tog` hosil bo`lish jarayoni bilan bog`liq geosiklinal (yer po`stining burmalanish jarayoni) bog`liq. Bu burmalanishda Tyanshan tog` tizmasidagi Farg`ona botig`i vujudga keldi. Vodiyning shimol tomonidagi Qurama, CHotqol tog`lar ham ko`tarila boshlagan.

Mezozoy erasida Farg`ona botig`ida O`zbekistonning g`arbidagi Ustyurt, Qizilqum cho`llari va Mirzacho`l dashti o`rnidagi katta Tetis dengizidan suv bostirib kirib, vodiyning katta qismini egallaydi va uning qo`ltig`iga aylanadi. Keyinchalik, vodiya kichik ko`llar va bir qancha botqoqliklar vujudga keladi. Ko`l va botqoqliklar atrofidagi hududlarni qalin o`rmonlar egallab, ularda qirg`in va paparotniklar o`sgan. Ko`llarga atrofidan oqib keladigan daryo va soylar ko`p miqdorda shag`al va boshqa xar xil tog` jinslarini keltirib tashlagan. Ular cho`kindi jinslar ostida qolib ketgan. Bu yotqiziqlar ostida qolgan hayvon va o`simlik qoldiqlari neft va gaz qatlamlarini hosil qilgan.

Mezozoy erasining oxiri va Kaynazoy erasining boshlaridagi (qariyb 70 mln yil avval) Al`p tog` hosil bo`lish jarayonida Farg`ona vodiysi atrofidagi tog`lar-shimoli-g`arbda Qurama, Qoramozor, shimolda CHotqol, shimoli-sharqda Oto`ynoq, Farg`ona, janubda Oloy, Turkiston va boshqa tizmalar takror ko`tariladi va Farg`ona qo`ltig`idagi suv g`arb tomonga chekinib, platforma bosqichini kechiradi, ya`ni quruqlik kengayadi. Darhaqiqat, bu tog`lar Pleazoy erasidagi Gertsin va Mezo-Kaynazoy erasidagi Al`p burmalanishlarida hosil bo`lgan. Bu tog`larning kristall jinslari qozonsimon (aniqrog`i ellipsimon) shakldagi botiqni hosil qiladi. Botig`ining markaziy qismidagi hududlarni vodiya atrofidagi tog` va tog` oldi atroflarida kelgan yotqiziqlar bilan (to`ldirilgan) qoplangan. Bu yotqiziqlar hosil bo`lishiga ko`ra allyuvial (daryo oqizib ketgan turli jinslardan iborat yumshoq yotqiziqlar) va eol (shamol uchirib ketgan yotqiziq) hosilalaridir. Binobarin, bu yotqiziqlar orasida lyoss (chang uyushmasi), lyossimon, qumoq, qum va shag`allar ko`proq uchraydi. Bu kabi yotqiziqlar vodiyning markazidagi hududlarda – Andijon viloyatining Ulug`nor, Farg`ona viloyatining Yaypan, Buvayda tumanlari va Namangan viloyatining biz o`rganayotgan Mingbuloq tumanida ko`proq uchraydi. Bu yerlardagi to`rtlamchi davrning yotqiziqlarining qalinligi o`rtacha 1100-1500 metr, Mingbuloq tumanining janubida esa 700-800 metr qalinlikdagi qatlamni hosil qiladi.

Tuman rel`efini hozirgi ko`rinishi esa tektonik harakatlar va insonning intensiv ho`jalik faoliyatining ta`siriga bog`liq. Binobarin, Mingbuloq tumani rel`efini asosiy qismini tekislik tashkil qiladi va uning hududi viloyat miqyosida eng past hudud hisoblanadi. eng past qismlari – Qoraqalpoq va Achchiqko`l cho`llari hisoblanadi.

Tumanning er yuzasi sharq hamda shimol va shimoli-g`arbgga tomon 0,0002-0,0003 daraja qiyalik hosil qiladi. Tuman hududining o`rtacha balandligi-Sirdaryoning o`ng sohilida 370-400 metr, janubiy va uning atroflari 350 metrdan iborat. Janubiy qismlari esa 280-300 metrn tashkil qiladi. Tekisliklar hosil bo`lishiga ko`ra akkumulyativ (turli jinslarining yotqiziqlari) tekisliklar sanalib, allyuvial, prolyuvial va dellyuvial tekisliklarning qalin qatlamlaridan iborat.

Mingbuloq tumani hududi Farg`ona botig`ining markaziy qismi bo`lgani uchun bu yerda to`plangan yer osti suvlari sekin – asta yer yuziga sizib chiqa boshlab, botqoq va sho`rhok erlarni hosil qilgan. Ayrim botqoqlashgan va sho`rlashgan joylarda qum tepaliklari orol –orol

shaklida uchraydi va ularning balandligi 5-8 metr. Tumanning janubiy hududlarida Markaziy Farg'onaning g'arbidan esuvchi kuchli shamollar ta'sirida to'zib yuruvchi qumlar ham uchrab turadi.

So'nggi yillarda bunday yerlar tezlik bilan o'zlashtirilishi natijasida qumli yerlar maydoni qisqarib bormoqda. Bu yerlarda gil tuproqli yerlar o'zlashtirilmogda. To'zima yerlar mustahkamlanib, qumlarning ko'chishi sekin-asta to'xtalmogda. Mavjud ko'chma qumlar usti yulg'un, cherkaz, saksovol o'simliklari bilan mustahkamlanmogda.

SHuni ta'kidlash joizki, Mingbuloq tumani yer yuzasining hozirgi rel'ef shakllarini qaror topishida o'tmishda Farg'ona vodiysi atrofidan oqib tushgan ko'p sonli daryo va soylar olib kelgan yotqiziqlar bilan birga Sirdaryoning erozion (yemirish) va akkumulyativ faoliyatining ham ahamiyati katta. Sirdaryo suvning vaqti-vaqti bilan to'lib-toshib oqishi va yon hamda chuqurlashish eroziya tufayli o'z-o'zini shakllantirgan va atrofiga ko'plab yotqiziqlar yotqizilgan. Natijada, Mingbuloq tumani hududi va uning atrofida Sirdaryoning quyidagi terassalari rivojlangan.

I-terassa, ya'ni Sirdaryoning chap qayiri. Bu hududlar unchalik keng emas, faqat ayrim joylarda uning kengligi 3-4 kmga etadi. Er usti tuzilishida botqoqlashgan hududlar va o'tloqliklar mavjud bo'lib, keyingi yillarda o'zlashtirilib sholi yetishtirishda foydalanilmogda. Bu terassaga tumanning Momoxon, Dovduq, Ingichka va Gulbog' qishloqlarining Sirdaryoga yaqin joylari to'g'ri keladi. Bu hududning o'rtacha balandligi (Boltiqlik dengiziga nisbatan) 340-350 m.

II-terassa, Sirdaryo sathidan 2-4 m. balandlikdagi hududlarni o'z ichiga olib, kengligi 15-20 kilometrni tashkil qiladi. Bu terassa Sirdaryoning chap sohilida yaqqol ko'zga tashlanib turadi va Mingbuloq tumani hududining asosiy qismi joylashgan.

III-terassa Sirdaryoning o'ng sohilini egallaydi. Bu yerlar adir oldi konussimon yoyilmalardan iborat. Tekisliklarni o'tgan asrning 50-yillaridan keyin jadal o'zlashtira boshlandi. Hozirgi kunda o'zlashtirilmagan yerlar deyarli qolmadi.

Iqlim xususiyatlari va suvlari. Mingbuloq tumani iqlimining hosil bo'lishida uning geografik joylashuvi katta ahamiyatga ega. Yevrosiyo materigining ichki qismida joylashganligi, okean va dengizlar ta'siridan uzoqligi, atrofini tog' tizmalari bilan o'ralganligi, radiatsiya tsirkulyatsiyasi harakatining bir muncha sustligi kabi omillar uning iqlim xususiyatlarini belgilaydi. Ana shu omillar ta'sirida tuman hududida mo'tadil iqlim mintaqasining kontinental tipi qaror topgan.

Qishda Arktika havo massalari, yozda esa mo'tadil quruq havo oqimlari hukmronlik qiladi. Arktika havo oqimi haroratining pasaytirib, yog'in miqdorini ko'paytiradi. Mo'tadil quruq va tropik havo oqimlari iqlimni quruq va issiq bo'lishini ta'minlaydi. Vegetatsiya davri 230-240 kun. O'simliklar o'sishi uchun foydali haroratlar yig'indisi 4600-5000⁰s daraja. Havo haroratining o'rtacha yillik tebranishi 14,5-16 darajaga teng.

Yanvar oyining o'rtacha harorati -0,2- -2,4 daraja, absolyut minimum harorati esa -27-29 daraja. SHimoldan Arktika havo oqimining kirib kelishi natijasida qish oylarida tez-tez havo haroratining keskin pasayib ketishi kuzatiladi. Iyul' oyining o'rtacha harorati esa 20-28 daraja, eng yuqori harorati 44 darajaga ko'tariladi.

Yillik yog'in miqdori 150-180 mm. Yog'in asosan qish va bahor oylarida yog'adi. Yoz oylarida 10-15 mm atrofida yog'in tushadi, xolos. Qor qoplaminin o'rtacha qalinligi 10 sm, ayrim yillarda 20 smdan ham ortadi va qor qoplami 20-40 kun turadi.

Tumanda Qo'qon va mahalliy tog'-vodiy shamollarining ta'siri kuchlidir. Qo'qon shamoli aprel' oyining ikkinchi yarmidan avgust oyigacha esib turadi. CHunki bu davrda tuman hududi yuqori haroratda isiydi va past bosim mintaqasini hosil qiladi. Natijada, atrofda tog' oldi adir va tog' mintaqalaridagi yuqori bosimli joylardan tuman hududiga havo massalari kirib, quruq va chang to'zonli kunlarni hosil qiladi. Dekabr' oyidan fevral' oyigacha sharqiy shamollar esadi. SHamol tezligi 15-20 m/sek. ga yetadi. Bunday shamollar 30 kundan ortiq davom etadi. Bu qishloq xo'jaligi ekinlariga sezilarli darajada zarar yetkazadi.

Bug'lanish tushayotgan yog'indan 15-20 barobar ko'p. Bu katta hududlarda minerallashgan yer osti suvlarini kapilyar orqali yuqori kuch bilan tuproqning gorizontlariga (qatlamlari) shimilib, sho'rlanish jarayonini hosil qiladi. Bunday sho'rlanish qishloq xo'jaligiga zarar keltiradi. SHuning uchun sho'rlanishning oldini olishga qaratilgan aglomeliorativ tadbirlar majmuasini amalga oshirishni taqazo qiladi.

Mingbuloq tumani hududi asosan Y. Oxunboboev nomli hamda janubiy qismidagi Andijon kanallari orqali sug'oriladi. Tumandagi suv taqsimotining rejali amalga oshirish va undan unumli foydalanish maqsadida 1964 yili tumanning sug'orish tarmoqlari boshqarmasi tashkil etildi. 1967 yilda boshqarma tarkibidan ajralib chiqqan melioratsiya –qurilish uchastkasi 1973 yili “Namangan qurilish” trestining mexanizatsiyalashgan ko'chma korxonasi (PMK)ga aylantirildi.

1987 yili tuman melioratsiya va suv xo'jaligi tarmoqlarini ta'mirlash va undan foydalanish, ishlab chiqarish birlashmasi (RPREO) tashkil topdi. Bu birlashma 1993 yildan boshlab tuman suv xo'jaligi boshqarmasi nomini oldi. 1997 yilga kelib tuman qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi nomi bilan yuritildi. 2003 yil 1-oktyabrdan boshlab esa Oxunboboev nomli irrigatsiya tizimi boshqarmasi nomi bilan faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Hozirgi kunda bu boshqarma 37600 gektar maydonni sug'armoqda. 167,7 kilometr ariq, 515 kilometr zovur, 170 ta suv tarqatish inshooti, 83 kilometr Sirdaryo dambasi, 58 ta tik drenaj, 92 gektar o'rmon va 100 kilometr elektr tarmog'ini ekspluatatsiya qilmoqda. Bundan tashqari, 1 ta qurilish uchastkasi va 6 ta gidrouchastka ishlab turibdi. 2010 yilda 466,7 ming m³ suv etkazib berildi. Kanal va ariqlardan tashqari Qolgandaryo, Tegirmonko'l kabi qoldiq ko'llar ham bor. SHuningdek, yer osti suvlari va Gurtepa qishlog'i yaqinidan chiqqan mineral sho'r suv aholi va ularning salomatligi uchun katta ahamiyatga ega. Tuman yer osti suvlari 2-3 metr, ayrim joylarda esa 0,5-1 metr chuqurlikdan chiqadi. O'z navbatida, yer osti suvlari aholini ichimlik suvi bilan ta'minlanishida muhim rol' o'ynamoqda. Tumanning barcha qishloqlari va Jomashuy shaharchasi vodoprovod suvi bilan ta'minlangan. Ichimlik suvi uzatish tarmog'ining uzunligi 136 km.

Tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi. Tumanda asosan bo'z tuproq turlari hamda sho'rhok, sho'rtob va o'tloq tuproqlar tarqalgan bo'lib, ular lyossimon, allyuvial, qumoq va qumloq ona jins zaminida rivojlangan. Sirdaryo bo'ylarida to'q va oddiy tusli bo'z tuproqlar, daryo oqizib kelgan allyuvial jinslarda botqoq - o'tloq va sho'rhok tuproqlar rivojlangan. Tuman hududida ko'proq quyidagi ikki xil tuproq tiplari keng tarqalgan.

1. Tipik (oddiy) bo'z tuproqlar.
2. Och tusli bo'z tuproqlar.

Tipik bo'z tuproqlar ona jinsi prolyuvial yotqiziqlardan iborat qatlamlarda rivojlangan. Bunday tuproqlarning madaniylashgan va madaniylashti rilayotgan turlari A.Navoiy, Amir Temur nomli, Gigant va Gulbog' fermer xo'jaliklari hududlarida uchraydi. Tuproqlardagi chirindi miqdori 1-1,5%ni tashkil qiladi. Och tusli bo'z tuproqlar tuman hududining janubidagi Xorazm, Farg'ona, Namangan va Guliston fermer xo'jaliklari hududlarida keng tarqalgan. Tipik va och tusli bo'z tuproqlar tarqalgan hududlar uzoq yillardan beri sug'orma dehqonchilik maqsadlarida foydalanib kelinadi. Natijada, bu yerlarni jadal o'zlashtirilishi va sug'orilishi oqibatida sug'oriladigan tipik va och tusli bo'z tuproq rivojlangan. Tuproqlar kuchli eroziyaga uchragan. Ularni oldini olish choralari ko'rilib, ixotazorlar tashkil etilmoqda. Ayni vaqtda, ixotazorlar tuproq hosildorligiga ham ijobiy ta'sir qilib, yoz oylarida tuproqdagi namlikni ortiqcha bug'lanishini kamaytiradi va yer osti suvlari sathining ko'tarilishini oldini oladi.

Tuman **o'simliklarining** dunyosini tarqalishiga iqlim va tuproq qatlamlarining o'ziga xos xususiyatlari, hududning rel'efi hamda geografik o'rni ta'sir qiladi. Hudud cho'l mintaqasida joylashgani uchun asosan cho'l o'simliklari tarqalgan. CHunki, iqlim xususiyatlari, ayniqsa havo harorati, yog'in miqdori hamda tuproqlari va geografik o'rni kabilar cho'l o'simliklarining moslashuviga ta'sir qiladi.

Tuproq gruntining xarakteriga ko'ra, ya'ni sizot suvlari yer yuzasiga chiqib yotgan joylarda shu hududga mos to'qay o'simlari - qamish-phragmites, qo'g'a-jipha, turanqil-populus

pruinosa, tol-salix songorika, jing'ul-tamarix kabilar tarqalgan. SHO`rhok va sho`rlangan yerlarda galofidlar (sho`rlangan yerlarga moslashgan o`simliklar) keng tarqalgan bo`lib, ajriq-Aeluropis litoralis, sho`ralarning vakillari, salsola (artemizm) kabilar ko`proq o`sadi. Pasammofitlar (qumli yerlar o`simliklari) cherkez-salsolarichter karel, qandim, tarnzi, saksovul-haloxylon persikum bge kabilar bilan band.

Hudud kuchli o`zlashtirilmoqda. Paxta, sholi, bug`doy, makkajo`xori, jo`xori va beda asosiy madaniy ekinlar sifatida ekiladi. Ular orasida begona o`tlar kurmak- Statce Gmelini, qamish, qo`g`a itizum-Solauum, ajriq, semiz o`t-Portulaka, ariq bo`ylarida otquloq-Rumex, yalpiz-Menthe kabilar o`sadi.

Mingbuloq tumani hududida tekislikning cho`l mintaqasiga xos **hayvon** vakillari uchraydi. Hayvonlarning aksariyati issiq va quruq iqlimga moslashgan. Sudralib yuruvchilar-ilon, kaltakesak, kemiruvchilar-dala sichqoni, kalamush, tipratikan, shuningdek yirtqichlarning bir necha turlari tarqalgan.

Insonning xo`jalik faoliyati tufayli hayvonlarning ko`plab turlari qirilib ketgan. Daryoning to`qayzor qismlarida, xususan, Gulbog` fermer ho`jaligi hududlarida, Momoxon qishlog`ining shimolida qushlar o`ziga xos biotop (muhit) hosil qiladi. Qushlardan botqoqlik qushlari – qirg`ovul, tuvaloq, jura, so`pito`rg`ay, cho`l chumchig`i, cho`l tustovug`i, yilqichi va boyqush yashaydi. Zaharli hasharotlar - qoraqurt, chayon, falanganlar ham uchraydi. Ayrim suv havzalarida ondatra ham mavjud.

Madaniy landshaftlarga yaxshi moslashgan hayvon turlari qushlardir. Ular bog`lar, ekinzorlar, binolar va boshqa inshootlarga in qurib, madaniy biotoplar hosil qilgan. Ayniqsa, ekinzorlardan o`tuvchi simyog`och va baland daraxtlarga laylaklar mustahkam in qurib yashaydi. Keyingi yillarda havo, suv va umuman muhitning ifloslanishi oqibatida ko`plab hasharotlar, qushlar nobud bo`lmoqda. Ayrim hayvon turlari umuman qirilib yo`q bo`lib ketmoqda. Ularni muhofaza qilish hayotiy zaruratga aylanmoqda.

Mingbuloq tumani tabiiy sharoiti va uning komponentlari hududiy jihatdan bir-biridan farq qiladi. Mavjud tabiiy geografik tafovutlarni hisobga olib, tuman hududi quyidagi tabiiy geografik rayonlarga ajratiladi:

1. Sirdaryo bo`yi mintaqasi.
2. O`rta mintaqqa.
3. Janubiy cho`l mintaqasi.

Sirdaryo bo`yi mintaqasiga Navoiy, Amir Temur nomli fermer xo`jaliklari hududlarining shimoliy qismlari va Gulbog` fermer xo`jaligi kiradi. Tabiiy sharoiti ancha qulay, rel`efi yosh geomorfologik shakllaridan tashkil topgan tekisliklardan iborat bo`lib, ular daryo qayirlari, qisman to`qayzorlar bo`lib, Sirdaryoning terassalarida joylashgan.

Iqlimi boshqa mintaqalarga nisbatan salqinroq, o`ziga xos mikroiqlimga ega bo`lib, Sirdaryo suvining oqimi ta`sirida mayin shaboda esib turadi. Yer osti suvlari yer betiga juda yaqin - 0,5-1 m, ayrim joylarda yer betiga chiqib, botqoqlik va ko`lmaklar hosil qiladi.

Tuproqlari - to`q tusli va oddiy bo`z tuproqlar daryo oqizib kelgan jinslarda rivojlangan. SHuningdek, allyuvial, botqoq- o`tloq va sho`rhok tuproqlar ham mavjud, o`simliklar dunyosida har xil o`t-o`lanlar-qamish, qo`g`a, savag`ich, turanqil, qiyoy, qizil miya, suvtol va jiyda kabilar uchraydi.

Hayvonot dunyosida suv qushlari, kemiruvchilar, sudralib yuruvchilar, botqoq qushlari, laylak, ko`l bedanasi, qashqaldoq, loyxorak, ondatra, tulki, chiyabo`ri, suvlarda ilon va boshqalar yashaydi.

O`rta tabiiy geografik mintaqaga Gigant, Istiqbol, Guliston fermer xo`jaliklari hududlari, qisman Navoiy, Amir Temur nomli fermer xo`jaliklarining janubiy hududlari kiradi. Bu hududlar asosan tekislik va haydalgan yerlardan, qisman qum tepaliklardan iborat. Mintaqa iqlimi mo``tadil va kontinental. Namgarchilik boshqa joylarga nisbatan o`rtacha. Yer osti suvlari yer sathidan 1,5-2 m chuqurlikda joylashgan. Bo`z tuproqlar bilan birga sho`rhoklar, sho`rtoblar, qisman qumoq va allyuvial tuproqlar uchraydi. Bu mintaqada tarqalgan turli tipdagi tuproqlarning 30-70 sm chuqurlik qismlarida arzik (gipsli) qatlamli tuproqlar uchraydi. Bu

qatlamlar ustida rivojlangan tuproqlarda o`simliklarni, ayniqsa mevali o`simliklarni o`shishi juda qiyin. SHuning uchun bunday tuproqlar tarqalgan hududlarda alohida agrotexnika ishlov beriladi.

Insonlarning xo`jalik faoliyati ta`sirida bu hududda tabiiy o`simlik va hayvonlar kam saqlangan. Yerlar haydalib, sug`orma dehqonchilik qilinadi. Bu mintaqada aholi va aholi qo`rg`onlari zich joylashgan. Bunday aholi qo`rg`onlariga Mehnatobod, Oltinko`l, Gurtepa va boshqa qishloq fuqarolar yig`inlari va ularning tarkibidagi mahallalar kiradi.

Janubiy cho`l mintaqasiga Xorazm, Farg`ona fermer xo`jalikari va Istiqbol fermer xo`jaligining janubi-g`arbiy qismlari kiradi. Bu hududlarda aholi siyrak joylashgan va Qoraqalpoq va Markaziy Farg`ona qumli cho`llari egallab yotadi.

Iqlimi issiq va quruq. Yer yuzasi tekislik. Ayrim joylarda qum tepalari bor. U yerlarda sho`rxok, botqoqlashgan cho`kmalar ham uchraydi. Tuproqlari qum, qumoq, lyoss, gil va bo`z tusli tuproqlarni tashkil qiladi. Bu tuproqlarda chirindi miqdori kam, kapilyarlik xususiyati yuqori, qum xarakati kuchli va gipsli (arzik) qatlam yer yuzasiga yaqin joylashgan. SHuning uchun bu yerlarda dehqonchilik qilish bir muncha murakkab.

Xorazm, Guliston va Istiqbol fermer xo`jaliklarining shimoliy qismlarini o`zlashtirilib, ixotazorlar tashkil qilingan. Bu yerlar intensiv o`zlashtirish natijasida sug`orma dehqonchilik asosida sholi, paxta va poliz mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirilgan.

O`simliklari-asosan, saksovul, yantoq, sho`ra, ajriq, qamish, qo`g`a, qizil miya hisoblanadi. Ular ham hozirda kam saqlanib qolgan. Hayvonlardan esa ariq bo`ylari va ixotazorlarda sudralib yuruvchilar-kaltakesaklar, echkiemar, ilon va qushlar uchraydi.

Tabiiy boyliklar – bu insonning yashash va xo`jalik faoliyati uchun zarur bo`lgan, uning xilma-xil ehtiyojlarini qondiruvchi yagona manbadir. Inson o`zi uchun zaruriy oziq-ovqatni, kiyim-bosh, yoqilg`i va energiya, sanoat homashyosini hamda qurilish materiallarini tabiatdan oladi. Insonning tabiatdan oladigan moddiy boyliklari-yer osti boyliklari, suv, havo, o`simlik va hayvonot olami kabi tabiiy boyliklardir.

Kaynazoy erasining paleogen davrigacha (bundan 28-30 ming yil avval) katta suv havzasining tubi bo`lgan Mingbuloq tumani hududida ko`p sonli hayvonlar yashagan. Hayvon organizmlarini keyingi yotqiziqlar ostida qolib ketishi tufayli tuman hududida neft, qisman tabiiy gaz vujudga kelgan. 1992 yil 2 mart kuni ana shu qatlamlardan birida kuchli neft favvorasi otilib chiqdi va Mingbuloq tumani iqtisodiy nufuzini yuksalishiga, qolaversa respublika neft hazinasi geografiasini kengayishiga zamin yaratdi. SHuningdek, tuman hududidagi Sirdaryoning birinchi qayirlari atrofida qurilishbop qum, shag`al, Gurtepa qishlog`i yaqinida yer osti shifobaxsh mineral suv mavjud bo`lib, ulardan keng foydalanilmoqda.

Tabiat jamiyatning talabini qondiruvchi bosh manbaa hisoblanib, undan oqilona foydalanish maqsadga muvofiqdir. Tuman tabiati va tabiiy boyliklarini muqofaza qilish-bu inson uchun zarur bo`lgan qazilma boyliklardan oqilona foydalanish, suv va havoni tozaligini ta`minlash, tuproqlarni eroziyadan saqlash, o`simlik va hayvonot dunyosini tabiiy xolicha saqlab qolish kabilarni o`z ichiga oladi.

Tabiatni muhofaza qilish, avvalo tuman tabiiy muhitini sof va ko`rkam holda saqlab, qayta tiklash demakdir. Atrof-muhit muqofazasi esa, bevosita davlat nazorat inspeksiylari tomonidan amalga oshiriladi. Binobarin, atmosfera havosini nazorat qilish davlat nazorati, yer maydonlarini muhofaza qilish nazorati, o`simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish davlat nazorati tashkilotlari faoliyat ko`rsatmoqda. SHunga qaramay ayrim tabiiy geografik mintaqalarda tabiatdan foydalanish holati talab darajasida emas. Bu esa joylarda maxsus nazoratni kuchaytirish talab etiladi.

Hozirgi kunda tumandagi muhim muammolardan biri yerlarning sho`rlanishidir. SHO`rlanishni oldini olish hamda tuproqni eroziyadan saqlash chorasini ko`rish lozim. Buning uchun agrotexnik choralardan o`z vaqtida foydalanish lozim. Har yili tuman aholisi eroziya va sho`rlanishni oldini olish uchun ko`plab terak, mevali va tut daraxtlarini ekib, bog`lar barpo etmoqda. 2011 yil bahor mavsumida 300 000 tup turli daraxt ko`chatlari ekildi. Tuproqni sho`rlanish darajasi yildan-yilga oshib bormoqda. Bunga sabab, ko`plab zakan va zovurlar

ko`mib yuborilgan va ularning mavjudlari esa o`z vaqtida qazilmasligidir. Ayrim xo`jaliklarda ariq va zovurlar bir necha yildan beri qazilmaydi. To`g`ri keyingi yillarda zovur va kollektorlarni tozalash bo`yicha bir muncha amaliy ishlar qilinmoqda.

Bundan tashqari tuman hududidagi tuproqlarga agrotexnika talablari asosida ishlov bermaslik, almashlab ekishga rioya qilmaslik, mineral o`g`itlardan rejasiz foydalanish, organik o`g`itlardan unumli foydalanishga e`tiborsizlik oqibatida tuproqlarning asl holati yo`qolib, hududida sho`rtob, sho`rhok va botqoqlashgan yerlar ko`paymoqda. Buni quyidagi jadvaldan ham ko`rish mumkin.

Jadval,1

Mingbuloq tumani xo`jaliklari yerlarning 2000-2010 yillardagi sho`rlanish darajasini o`zgarishi*

Yerlarning sho`rlanish darajasi	Yillar			
	2000		2010	
	ga	%	ga	%
Kuchli sho`rlangan	4465	13,8	6565	19,9
O`rtacha sho`rlangan	12854	39,7	15536	47,2
Kuchsiz sho`rlangan	15086	46,5	10792	32,9
Jami:	32405	100,0	32893	100,0

***Jadval tuman hokimligining qishloq va suv ho`jaligi bo`limi ma`lumotlari asosida tuzilgan**

Yuqoridagi jadval-1dan ma`lumki, so`nggi 10 yil ichida kuchli sho`rlangan yerlar 6,1 foizga, o`rtacha sho`rlangan yerlar esa 7,5 foizga ko`paygan. Kuchli va o`rtacha sho`rlangan maydonlar salmog`i Xorazm, Namangan va Istiqbol fermer xo`jaliklari yerlarida ko`payib bormoqda.

Jadval,2

Mingbuloq tumani xo`jaliklari yerlarida 2000-2010 yillarda sizot suvlarining satxini o`zgarishi*

Sizot suvlarning joylashishi (sathi)	Yillar			
	2000		2010	
	ga	%	ga	%
1,0-1,5 m	26175	80,8	5991	16,0
1,5-2,0 m	6230	19,2	28689	76,0
2,0-2,5 m	-	-	3317	8,0
Jami sug`oriladigan maydon	32405	100,0	37823	100,0

*** Jadval tuman hokimligining qishloq va suv ho`jaligi bo`limi ma`lumotlari asosida tuzilgan**

Jadvaldan ko`rinib turibdiki, tuman hududida sizot suvlari sathi 2010 yilda 2000 yilga nisbatan keskin kamaygan. Bunga sabab keyingi yillarda zakan va zovurlarni qazish va tozalash ishlariga jiddiy e`tibor berilmoqda. Tuman xo`jaliklari maydonining asosiy qismini (76,0%) sizot suvlari sathi 1,5-2,0 m bo`lgan hududlar tashkil etadi. Amalga oshirilayotgan aglomeleorativ ishlar o`z samarasini bermoqda.

Minbuloq tumanining sanoat salohiyati yuqori emas. Lekin mavjud korxonlarning atrof-muhitni ifloslantirish sezilarlidir. Tumanda Gulbog` paxta tozalash zavodi yirik korxon bo`lib yiliga 112,6 tonna atmosferaga chiqindi chiqaradi. CHiqindilarni tutib qolish uchun 18 ta tsiklon dastgohi o`rnatilgan bo`lib, ularning samaradorligi 88,0 foizni tashkil etadi, xolos. Keyingi yillarda tuman hududida faoliyat ko`rsatgan barcha korxonalarga tozalash uskunalari o`rnatilmoqda. Jumladan, faoliyat ko`rsatayotgan 32 ta ro`yxatdan o`tgan objuvoz, tegirmonlar va 2 ta uvada titish tsexlariga tozalash uskunalari o`rnatildi.

Tuman tabiatni muhofaza qilish bo`limi tirik organizmlarni (o`simlik va hayvonot dunyosi) saqlanib qolishga ham e`tiborni kuchaytirmoqda. Hududdagi yo`qolib borayotgan

o`simliklar – saksovul, yantoq, turong`i, yovvoyi chinor, hayvonlardan – tulki, chiya bo`ri, qo`shoyoq, echkiemar, cho`lbarilon, baliqlardan turkiston usachi, yapaloqbosh, laqqa va boshqalarni saqlab qolish va muhofaza qilish uchun Istiqbol va Xorazm fermer xo`jaliklari hududida qo`riqxonaga 1000 ga yer ajratilgan. Qo`riqxonada tuman hududining janubidagi deyarli o`zlashtirilmagan cho`l qismini egallaydi. Ammo, bu yerda o`simlik va hayvonlarni saqlab qolish uchun aniq bir ish amalga oshirilganicha yo`q. SHunga qaramasdan tuman tabiatni muhofaza qilish bo`limi xodimlari kam saqlanib qolgan o`simlik va hayvonot turlarini yo`qolib ketishiga qarshi amaliy kurash olib bormoqdalar. Xususan, kamayib borayotgan o`simlik turlarini tiklash va ko`paytirish, hayvonlarni esa ularni yashash va rivojlanishiga sharoit yaratish hamda turlarini saqlash va ko`paytirish kabi ishlar amalga oshirilmoqda. SHuningdek, hayvonlarni ovlashga qarshi qonuniy choralar ko`rilmoqda.

Tuman aholisini ichimlik suvi bilan ta`minlash muammosi ham asta-sekin hal qilinmoqda. Bu borada tuman melioratsiya va suv xo`jaligi tarmoqlarini ta`mirlash va ulardan foydalanish ishlab chiqarish birlashmasi aholini ichimlik suvi bilan ta`minlash ishlarini amalga oshirmoqda. Hozir tuman aholisining qariyb 77,0 foizi vodoprovod suvi, 17,0 foizi quduq suvlaridan foydalanmoqda. SHunga qaramasdan aholining 6,0 foizi ariq va sun`iy havzalar suvlaridan ichimlik suvi sifatida foydalanmoqda. Ayniqsa, tumanning Bo`ston (41,1 foiz), Oltinko`l (71,0 foiz) va Momoxon qishloq fuqarolar yig`inlarida ichimlik suvi bilan ta`minlanish qoniqarli emas.

SHuni ta`kidlash lozimki, tabiatning betakror go`zalligi kishilarning nafis va noyob mehnatlari natijasida o`z aksini topadi va sayqallashib boradi. Bu mujassamlik tuman xalqidan uning tabiatini chuqur o`rganish, durdonalarini asrab avaylab, kelajak avlodga yetkazishga da`vat etadi.

* * *

Sirdaryoning so`l “chap” qirg`og`idan qadimiy Axsikent qal`asining qoldiqlari ko`zga tashlanadi. Tarixiy manbaalarga qaraganda, O`zbekiston Fanlar Akademiyasi akademigi Yahyo G`ulomov 1960 yillarda Gurtepa qishlog`ida “Baland Gurtepa” hududida olib borilgan arxeologik qazishmalarda bronza davriga oid mehnat qurollari topilganligini ma`lum qiladi. Demak, Mingbuloq tumani hududida miloddan avvalgi V-asrlarda ham insonlar yashaganligidan dalolat beradi. (Yahyo G`ulomov, “Tanlangan asarlar”. T.1960 y.)

O`zbek klassik adabiyotining namoyondalaridan biri, shox Zahiriddin Muhammad Boburning dunyoga mashhur “Boburnoma” asarida shunday jummalarga duch kelasiz: “Axsikentning janubiy tomonida shunday joylar bordurkim, ov qilmog`ingizda samog`a ketadurgan tovuslarning ranggi etti xil rangda yal-yal tovlanadi...”. (Boburnoma, 1966 y.)

Tumanning tub aholisi asosan o`zbeklar. Hududdagi eng qadimiy va katta qishloq Gurtepa qishlog`i bo`lib, aholisi qadimiy Axsikent, Qo`qon, Andijon va O`shdan kelib o`rnashib qolgan. Tuman tarixi esa shu qishloq tarixi bilan bog`liq.

Gurtepa tarixi 2000 yildan oshadi. Bunga asos Mulkobod va Baland Gurtepada qazish ishlarida topilgan ashyolar asos bo`ladi. Mulkobodda 12-maktab binosi qurilishida qabrlarga duch kelinadi. Qabrlarda qo`yilgan jasad yonida 3 tadan xumcha bo`lib, birinchisi-10 litr, ikkinchisi -7 litr, uchinchisi-5 litr chamasi hajmidagi xumchalar edi. Bu xumlarni yonidan teshilgan bo`lib, tarixchi olim Yo`lchi Qosimov fikriga ko`ra, bu xumlarga narigi dunyoda och qolmaslik uchun oziq-ovqat qo`yilgan. Qolaversa, boshqa uy-ro`zg`or buyumlari ham topildi. Qishloq Sirdaryoning chap tomonida joylashgan bo`lib, daryodan kemalar orqali yoki paromlar orqali o`tishgan. XX asrning 20-30 yillaridagi istiqloq uchun kurashda qishloq uch marta yondirilganligi haqida ma`lumotlar bor.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida qishloq nihoyatda gurkirab rivojlangan, ming uyli kichikroq shaharcha darajasiga yetgan. Qishloq o`rtasida juda katta tim, ya`ni usti yopiq bozor bo`lgan. Bozorning chor atrofi savdogarlarning rastalari va boqqollik do`konlaridan iborat bo`lib, bozordan to`rt taraf tomonga tomlar ulanib ketgan. Ko`p aholi savdogarlik bilan shug`ullangan, bo`z to`qigan. Qishloqda xunarmandchilik ham rivojlangan bo`lib, objuvoz, tegirmon ko`p bo`lgan. Dutor, nay va boshqa musiqa asboblari yasovchi ustalar bo`lgan. O`z

navbatida, san`atkorlar ham ko`p bo`lgan. Yaqin o`tmishda, sho`rolar davrining dastlabki yillarida ham Oqboy buva, Mamadali aka, Jumaxofiz, Eshtemir karnaychi, Yo`lchi qiziq kabi san`atkorlar butun Farg`ona vodiysiga mashhur bo`lishgan.

Gurtepaning kun chiqish tarafida Dovduq va Terak qishloqlari bor. Bu qishloqlar ham uzoq tarixga ega bo`lib, aholisi Gurtepa va Andijon tomonlardan ko`chib kelgan. Bu qishloqlarning aholisi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug`ullanib kelgan.

Hozir tuman markazi bo`lgan Jomashuy, CHordona, Ingichka, Qayrag`ochovul, Mazgil, Momoxon, Nayman, Beshserka, Qorashahar, Alami kabi qator eski qishloqlarda o`zlarini Qoraqalpoqlar deb atovchi aholi yashaydi. Fanda ularni Farg`ona qoraqalpoqlari deb yuritiladi. Qoraqalpoqlar hozirda o`z millatlarini rasman o`zbek deb yozdirishadi, asosan o`zbek tilida, faqat “j”lovchi shevada so`zlashadi.

Rivoyat qilishlaricha, bir zamonlar Qoraqalpog`istonning Jiydali va Bo`ysun degan joyida bir qabila yasharkan. Nimadir bo`lib, qabila boshlig`i mahalliy hokimlar bilan chiqisha olmay qoladi. Nizolar chiqib bu gap xonga yetib boradi. Xon qabila oqsoqollariga emas, o`z amaldorlariga yon bosadi. Oqibatda ikki oqsoqol o`ldirilib, butun qabila quvg`in ostiga olinadi. Qochoqlar panox istab yo`lga chiqishadi. Sirdaryoni yoqalab oqimga qarshi yurishadi. Nihoyat, yam-yashil vohaga – Farg`ona vodiysiga kirib kelishadi. Ganji-ravon degan joyda qo`noq topib, Qo`qon xonidan boshpana so`rashadi. –“Mayli, sizlarga Ganji-ravonni beraman”, - deydi xon saxiylik qilib.

-Yo`q, Ganji - ravon bizga torlik qiladi, - deydi qoraqalpoqlarning oqsoqoli. Bizga mol - qo`y boqadigan kengroq joy bersangiz.

-Undoq bo`lsa, Sir bo`yidagi sero`t joylarga o`rnashib, tirikchilik qilaveringlar, - deydi xon.

SHu tarzda qoraqalpoqlar Sirdaryo bo`ylab Ganji-ravondan Buva va G`ozigacha (O`sh tomonda) tarqalib ketib, har qaysi urug` bir mahalla bo`lib, cho`lu - biyobonlarda o`z bilganlaricha yashay boshlaydilar. Ular kimsasiz joylarga kapa tikib, chorvachilik va ovchilik bilan shug`ullanishgan. Keyinroq foydalanilmayotgan yerlarni o`zlashtirib, dehqonchilik qilishni o`rganishgan, asosan qovun, tarvuz, makkajo`xori va jo`xori ekishgan.

Qoraqalpoqlar yashayotgan qishloqlarning nomlari ham aksariyat ularning ayrim urug`lari nomi bilan, qisman geografik o`rni bilan bog`liq. Masalan, Nayman, Jomashuy nomlari shunday nomlarga kiradi. Qolgandaryo, Qorashahar, CHordona, Ingichka nomlari qishloqning geografik o`rni, ro`y bergan tarixiy voqealar bilan bog`liq ekanligi yaqqol ko`rinib turibdi.

Tuman hududida joylashgan qishloqlarning tabiiy sharoiti yashash uchun noqulay edi. Hammayoq ko`l va botqoqlik, qamishzor-to`qay va kimsasiz qum barxanlaridan iborat bo`lgan. Do`ngalak ko`l, CHoldi ko`l, Katta dam ko`li, Oydin ko`l, To`ng`iz ko`l, Achchiq ko`l, Sarson ko`l kabi bir nechta o`nlab katta-kichik ko`llarning suvi Qo`qon tomonga oqib ketadi, u qishloqdan bu qishloqqa borish uchun bir necha kechuvdan o`tishga to`g`ri kelardi. Yoz oylarida ko`llardan yopirilib keluvchi to`p-to`p och pashshalar kunduz kuni ham odamlarga tinchlik bermasdi. Doimo balchiqning xidi dimoqqa urib turardi. Bezgak, vabo, chuma kabi dahshatli kasalliklar tez-tez bo`lib turardi. Ocharchiliklar qancha-qancha odamlarning yostig`ini quritardi. Atrofdagi bo`ri, yovvoyi to`ng`iz, tulki, chiyabo`ri, echkiemar kabi yovvoyi hayvonlar izg`ib yurardi. Odamlar yolg`iz yurishga qo`rqishardi. Ko`pchilik qoraqalpoqlar ko`llardan ming azob bilan qamish o`rib chiqib bo`yra to`qishardi.

Bechora dehqonlar ko`l bo`yidagi botqoqliklarni ne qiyinchiliklar bilan o`zlashtirib, balandroq joylarga paxta, qovun, tarvuz, makkajo`xori, oqjo`xori, yarim botqoq yerlarga esa sholi ekishardi. ekinlarni ko`ldan chiqqan sho`rsuv, ba`zi joylardagi buloq suvi bilan sug`orishardi. Butun Gurtepa qishlog`iga Baland Gurtepadagi buloqdan suv kelardi. Mobodo ko`llarda suv ko`payib ketsa, ekin-tekinni suv bosardi. SHunday paytlarda qishloqlardagi odamlar to`planib, ko`llarning ichkarisiga kirib borishar, tor bo`g`ozlarni topib, qamishdan to`g`on solishar edi. Ko`pincha bu to`g`onlar ham yordam bermasdi.

Gurtepani mustasno qilganda, boshqa qishloqlarda sanoqli xonadonlarda odamlar yashardi. O`ziga to`qroq odamlar ham chimdan qurilgan, suvalmagan, derazasiz uylarda

yashardi. Qish oylarida o`rtadagi qorao`choq atrofida jon saqlashardi. Ancha oilalar qishin-yozin qamish kapalarda turardi. Odamlar bozor-ucharga Sirdaryoning o`ng sohilidagi SHaxand qishlog`iga, Namangan, Qo`qon, Andijon, Marg`ilon shaharlariga piyoda qatnar edi.

CHor Rossiyasi hukumati butun Turkistonda bo`lgani kabi mana shu mintaqadagi qishloqlarda ham mustamlakachilik va talonchilik siyosatini o`tkazdi. 1918-1920 yillarda “Qizil imperiya”ning talonchilik maqsadida olib borgan urushining ta`siri Mingbuloq hududlariga ham yetib keldi. SHu davrda M.V. Frunze boshchiligidagi rus bosqinchilari ming uyli Gurtepa qishlog`ini uch kun tinimsiz to`plardan o`qqa tutadi. Buning sababi erkin dehqonchilik va chorvachilik bilan shug`ullanib yashayotgan tub mahalliy aholi rus bosqinchilariga tobe bo`lishini hojlamasdan va o`z mustaqilligi uchun kurash olib boradi. SHu sababli qishloq vayron qilinadi. SHundan keyin qishloq “Kultepa” deb nomlangan.

Yurt biroz tinchigandan keyin 1920 yilda Jomashuy, Qo`g`aliko`l, Beshserka qishloq sho`rolari, 1925 yilda Gurtepa, Dovduq qishloq sho`rosiga dastlab Ergash Xudoyberdiev, Gurtepa qishloq sho`rosiga kambag`al dehqon Abdug`affor Zokirov, Dovduq qishloq sho`rosiga Abdulla Rahmonov rais bo`ldi. Ular xalq o`rtasida katta targ`ibot – tashviqot ishlarini olib bordilar, sovet hokimiyatining rejalarini etkazib turdilar, yer-suv islohotlarini o`tkazishda kooperativ, fermer, nihoyat kolxozlar tuzilishida faol qatnashdilar. Zamonaning zayli bilan o`sha yillarda ko`pgina kattaroq yer-mulk egalari yot, unsur, zararkunanda sifatida quloq qilindi.

Ma`lumki, fuqarolar urushi davom etayotgan og`ir yillardayoq sobiq sovet hukumati - Rossiyaning markaziy sanoat rayonlarini xom ashyo bilan ta`minlash maqsadida Turkistonda dehqonchilikni, jumladan paxtachilikni jadal rivojlantirish, irrigatsiya – melioratsiya ishlarini o`tkazish to`g`risida g`amxo`rlik qila boshladi. SHu maqsadda 50 mln. so`m mablag` ham ajratib berildi. O`zbekistonning birinchi oqsoqoli Yo`ldosh Oxunboboev bu sohada katta ishlar qildi. Yo`ldosh ota Markaziy Farg`ona cho`llarini o`zlashtirib, ishga solish to`g`risida ko`plab ishlar amalga oshirdi. Farg`ona vodiysining 11 ta tumanidan 6500 kishi kelib, cho`lda hashar yo`li bilan mashhur Musulmonqul kollektorini qaziydi. 1917 yilda Qadimgi eshon ariq o`zanida katta kanal barpo etiladi. Bu kanalga Yo`ldosh Oxunboboev nomi berildi.

Kanal qurilishi shubhasiz Markaziy Farg`ona mintaqasida, jumladan hozirgi Mingbuloq tumani hududidagi yerlarda dehqonchilikni rivojlantirish imkonini yaratdi. SHu davrda Jamoliddin Toshtemirov Gurtepa va atrofdagi boshqa qishloqlarda juda katta ishlarni qildi. Xususan, atrofdagi faollar bilan Gurtepada yer islohoti o`tkazilib, har bir dehqon xonadonining kuchiga qarab 1-2 ga. dan yer taqsimlab berildi. SHuningdek, Kosonsoy mashina - traktor parkidan traktor olib kelib, qishloq atrofidagi yerlar haydatildi va dehqonchilik maydonlariga aylantirildi. Xo`jalik dehqonlari ko`p yerlarga paxta ekdilar. Paxta hosilini Buvayda va Xo`jaqishloq qabul punktlariga topshirildilar. 1926 yili esa Momoxon qishlog`ida birinchi Qirqchek paxta qabul qilish punkti tashkil etildi.

Jamoliddin Toshtemirov faolligida 1924 yilda Gurtepaning Daxma mahallasida birinchi maktab ochildi. Maktabda darslarga Xayrullo Fattoxov, keyinroq Mamadali Yunusov o`qituvchilik qildi, so`ngra Abdug`affor Parpiev ham Andijonda o`qib kelib bolalarga ta`lim berdi. Ular kechani - kecha, kunduzni - kunduz demay, uyma - uy yurib xalq orasida tushuntirish ishlarini olib borishdi. SHu yili Qolgandaryo qishlog`ida ham birinchi boshlang`ich maktabi ochildi. Maktabning birinchi o`qituvchilari Madamin Axrorov va Mamadali Yunusovlar bo`ldi.

1921 yil Farg`ona viloyati Qo`qon gruppasi rayonlarida 6 ta davlat xo`jaliklari (sovxoz) tashkil etildi. 1924 yil yanvarda Qoraqalpoq temir yo`l bekati yaqinida “Tollik - Yakkatut” sovxozini barpo etildi. Sovxozning birinchi direktori Aleksandr Aleksandrovich Voskresen`skiy bo`ldi. Bosh agronom etib, N.A. Ramanenko tayinlandi. Bular dalalarni, botqoqlik va qum barxanlarini piyoda kezib, ekinzorlarni kengaytirish va hosildorlikni ko`tarish tadbirlarini amalga oshirdilar. Andijondan “Titan”, “Mogul” traktorlari olib kelib, ekin maydonlarini kengaytirdilar. 1925 yil sovxozga Bauman nomi berildi. 1924 yilda sovxoz 36 ga paxta maydoniga ega bo`lgan bo`lsa, 1926 yilda bu ko`rsatkich 347 ga. ga etdi.

Yo`ldosh Oxunboboev nomli kanalni qayta ta`mirlab paxta maydonlarini yanada kengaytirildi. 1930 yilda 1024 ga maydonga, 1931 yilda 2041 ga.ga, 1932 yilda esa 2559ga

yerga paxta ekildi. Har bir gektar yerdan 9-10 tsentnerdan hosil olindi. 1932 yildan boshlab sovxoz Farg'ona vodiysidagi yagona paxta urug'chilik xo'jaligiga aylantirildi. Yangi texnikalar bilan ta'minlandi va hosildorlik ko'tarildi. 1938 yilda sovxozning nomi "Gulbog'" deb o'zgartirildi.

O'zbekiston Respublikasining Oliy Kengashi Prezidiumining shu yil iyul oyidagi farmoni bilan Yakkatut qishloq kengashi ikkiga bo'linib, mustaqil Gulbog' qishloq kengashi tuzildi. 1928 yili Gurtepa qishlog'ida "Guliston" qishloq xo'jalik arteli tuzildi. Unga J.Toshtemirov rahbarlik qildi. 1929 yili J.Toshtemirov bir guruh faollar bilan Gurtepa qishlog'ining g'arb tomonidagi Bo'rixona deb atalgan kimsasiz yerni o'zlashtiradi va tez orada aholi ko'chib kelib mahalla tashkil topadi. Mahallaga yaxshi niyat bilan "Yangi shahar" deb nom beriladi. Mahalla hududida "Oktyabr' 12 yilligi" jamoa xo'jaligi tuzildi. J.Toshtemirov rais etib saylandi. Tez orada Gurtepa qishloq kengash hududida 1929-1932 yillarda 12 ta jamoa xo'jaliklar tuzildi. Jumladan, Tapa qishloqda - "Serxarakat", Quyon qo'qildi bilan Tegirmon boshida - "Ixtiyor", "Zarbdor", Qo'shqishloqda - "Qizil dehqon", Baland Gurtepa bilan Do'msada - "YAngi chorva", O'rtta qishloqda - "Muborak", "Kominter", Uzuntepada - "Kaganovich", Gurtepaning bir qismida - "Yangi Obod" jamoa xo'jaliklari tuzildi. Qolaversa, 1928-1932 yillarda Terak qishlog'ida "Paxtakor", Dovdiqda "Voroshilov", Katta Jomashuyda Bauman, CHordarada "Mulkobod", Ingichkada "Komsomol", Qizil tolda "Fayzulla Xo'jaev" nomli jamoa xo'jaliklari tuzildi.

O'z navbatida, quriq yerlar o'zlashtirilib, ekin maydonlarini kengaytirildi. Mingbuloq tumani yerlarini o'zlashtirishda koreys millatiga mansub aholi faol qatnashdi. Ular 1939 yili Yakkatut yaqinidagi botqoqliklarni o'zlashtirib "Avangard" jamoa xo'jaligini tuzdilar. SHu yili Jomashuy - Gulbog' avtomobil yo'lining 7-8 km. dagi ko'prik boshi atrofiga ham koreys dehqonlari ko'chib kelib, ko'llarning atrofidagi botqoq yerlarni o'zlashtira boshladilar va "Gigant" jamoa xo'jaligini tuzdilar. Keyinchalik tumandagi ko'plab jamoa xo'jaliklari birlashtirilib yuborildi. 1947 yilda "Zarbdor" jamoa xo'jaligi "Serxarakat" ga qo'shildi. 1949 yil 15 iyulda bu jamoa xo'jaligiga "Leningrad" nomi berildi. 1946 yilda "Yangiobod", "Mulkobod" kolxoziga, "Muborak", "Kominteri" kolxozlari Kaganovik nomli kolxozga qo'shildi. 1949 yilda "Yangi o'zgarish" kolxoz ham Kaganovik nomli kolxozga birlashdi. Yiriklashgan kolxozlar yaxshi rivojlandi. 1950 yilda "Mulkobod", "Kaganovich" nomli kolxozlar birlashtirildi, yiriklashgan kolxozga keyinchalik "Il'ich" nomi berildi. 1951 yilda Frunze nomli kolxozga qo'shni "Qizilnison" kolxoz, 1952 yili Tegirmondagi "Kirov" nomli kolxoz, 1953 yilda esa "Guliston" kolxoz qo'shib ketdi. SHvernik nomli kolxoz 1950 yilda "Gigant" kolxoziga qo'shildi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin bozor iqtisodiyoti islohotlari amalga oshirildi. Barcha ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tarmoqlarining korxonalar va tashkilotlari xususiylashtirildi. Tumandagi mavjud shirkat ho'jaliklari fermer va dehqon - fermer ho'jaliklariga aylantirildi. 2011 yil yanvar holatiga binoan tumanda 809 ta fermer ho'jaliklari, 30 ta dehqon fermer ho'jaliklari va boshqa qishloq ho'jalik tashkilotlari faoliyat ko'rsatmoqda.

Ikkinchi jahon urushidagn keyingi yillarda, ayniqsa O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin, tumandagi barcha qishloqlarning qiyofasi tubdan o'zgardi. Aholining turmush darajasini yaxshilashga katta e'tibor berildi. Ularning bunyodkorlik shijoati kuchaydi. Katta hajmda ko'p qavatli uylar, maktablar, litsey va kollejlari, bolalar bog'chalari, shifoxonalar, madaniy-maishiy, savdo va umumiy ovqatlanish tarmoqlari, ma'muriy binolar qurildi. Yo'llar asfal'tlandi, ichimlik suvi, tabiiy gaz va boshqa qulayliklar yaratildi.

O'z navbatida, tuman mehnatkashlarining fidokorligi, mehnatlari tufayli uning iqtisodiy-ijtimoiy va ma'naviy salohiyati yuksaldi. Ko'plab dondor paxtakorlar, g'allakorlar, mexanizatorlar, irrigatorlar etishib chiqdi. Qishloq ho'jaligi sohasida Abduqodir Valiev, Tojiboy Toshboev, Lim Men Gik, Org'inboy Xusanov, Zafar Imomberdievlar Mehnat Qahramoni, Abduvohob Turg'unov esa Davlat mukofoti unvoniga sazovor bo'ldilar.

Mustaqillik yillarida davlat mukofotlari bilan taqdirlanganlar soni qariyb 90 taga yetdi. Bularning 15 tasini xotin-qizlar tashkil etadi. O'tmishda barmoq bilan sanarli darajada savodli

kishilar boʻlgan boʻlsa, hozirgi kunda bir necha yuzdan ortiq oliy maʼlumotli muxandis-texnik hodimlar, pedagoglar va olim agronomlar halq hoʻjaligining turli sohalarida mehnat qilmoqdalar. Ularning orasidan fan doktorlari, falsafa fanlari doktori, Namangan davlat universiteti professori Mamasharif Nishonov, Oʻzbekiston Sogʻliqni Saqlash Vazirligi ilmiy tadqiqot institutining katta ilmiy xodimi, tibbiyot fanlari doktori, professor Umarxon Xanafiyaev, fizika-matematika fanlari nomzodi, Namangan davlat universiteti dotsenti Toshqinboy Umaraliev va boshqalar bilan mingbuloqliklar haqli ravishda faxrlanadilar.

2.2 Tuman aholisi va mehnat resurslari.

Aholi- bu maʼlum hududa yashayotgan kishilar guruhidir. SHuningdek, oʻz navbatida, aholi jamiyat va tabiat oʻzaro aloqasini bogʻlovchi hamda ijtimoiy ishlab chiqarishning bosh kuchi boʻlib, u moddiy va maʼnaviy boyliklar yaratadi, ularning isteʼmol qiluvchi hamda oʻzini ham takror barpo etib, avlodlar almashinuvini taʼminlaydi. SHuning uchun aholi va mehnat resurslarining xoʻjalik faoliyati hamma davrlarda iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining asosiy oʻrganish obʼekti va predmeti boʻlib kelgan. Binobarin, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining asosiy vazifasi ijtimoiy ishlab chiqarishning hududiy joylashish va rivojlanish qonuniyatlarini oʻrganishdir. Aholi esa har qanday jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchidir. Jamiyat hayoti uchun zarur boʻlgan boyliklar insonning mehnati natijasida yaratiladi. SHuning uchun ham aholining iqtisodiy va ijtimoiy geografik jihatidan oʻrganishda quyidagilarga eʼtib berish lozim:

1. Aholi ishlab chiqarish subʼekti, barcha moddiy neʼmatlarni ishlab chiqaruvchi.
2. Ishlab chiqarilgan jami ijtimoiy mahsulotlardan maʼlum qismini isteʼmolchisi.
3. Aholi butun ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonining muhim tarkibiy qismi boʻlib, oʻzi takror barpo qilinishi zarur.

Aholiga mos boʻlgan ana shu xususiyatlarni oʻrganmay turib, har qanday iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni chuqur tadqiq qilish va hal etish qiyin.

Mintaqalar aholisining tadqiq etishda uning soni, oʻsishi, tabiiy koʻpayishi, tarkibi (yosh, jinsiy—erkak va ayol, milliy va ijtimoiy tarkibi, maʼlumot darajasi) nikoh, oila, ajralish kabi demografik jarayonlarni oʻrganish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, bu demografik jarayonlar aholining bevosita oʻsishiga taʼsir qiladi.

Aholini takror barpo boʻlishi asosan ikki demografik jarayonlar - tugʻilish va oʻlimga bogʻliqdir. Insoniyat taraqqiyoti davomida hamisha avlodlar almashinuvi jarayoni davom etib kelgan. Har yili qandaydir sabablarga koʻra vafot etgan aholi oʻrnini yangidan, dunyoga kelgan avlod hisobiga toʻldirib borilishi aholining takror barpo boʻlishi deyiladi. Tugʻilganlar soni oʻlganlar sonidan ortiq boʻlgandagina aholi soni oshib, koʻpayib boradi. Bu esa jamiyat taraqqiyoti uchun muhimdir.

Aholining tabiiy oʻsishi maʼlum bir muddatda (odatda 1 yilda) tugʻilganlar sonidan oʻlganlar sonini olib tashlaganda qolgan qoldiq bilan oʻlchanadi. Aholining tabiiy oʻsishi koʻrsatkichlarini har 1000 kishiga nisbatan hisoblanadi va promille (%) bilan oʻlchanadi.

Mingbuloq Markaziy Fargʻonaning bir qismi boʻlib, bu yerlar keyingi 150-200 yil davomida oʻzlashtirilgan. SHuning uchun Mingbuloq tumani aholining yangi oʻzlashtirilib yashab kelgan maskanlaridan biridir. Toʻgʻri, uning ayrim qismlari, xususan Momoxon, Gurtepa, Mehnatobod va Dovduq qishloq fuqarolar yigʻinlaridagi qator aholi yashash joylarining tarixi oʻrta asrlarga borib taqaladi. Keyinchalik turli davrlardagi siyosiy-harbiy va ijtimoiy –iqtisodiy voqealar aholini oʻsishiga, uning joylashuvi, tarkibiga, mehnat resurslarini taqsimlanishi va aholi qoʻrgʻonlarining shakllanishiga hamda rivojlanishiga kuchli taʼsir etgan.

Mingbuloq Namangan viloyatida aholining tabiiy oʻsishi yuqori boʻlgan tumanlaridan biri. SHuning uchun uning aholisi tez surʼtlar bilan oʻsmoqda. Aholisi 1953 yilda 20,0 ming kishi, 1982 yilga kelib 54,5 ming, 1991 yilda 68,2 ming kishiga va 2010 yilning 1 yanvariga kelib esa 107,2 ming kishiga yetadi. Oʻtgan 60 yil ichida tuman aholisini qariyb 5,3 martaga koʻpaydi. SHunday boʻlsada, viloyat miqyosida tuman aholi soni boʻyicha oxirgi oʻrinda turadi. Bu holatni quyidagi jadval-3 da koʻrish mumkin.

Namangan viloyati aholisi mustaqillik yillari (1991-2010 yy.) 45,3 foizga oʻsgan boʻlsa, Mingbuloq tumani aholisi 72,0 foizga oʻsgan va bu koʻrsatkich boʻyicha viloyat tumanlari boʻyicha 5-oʻrinda turadi.

Jadval, 3

Namangan viloyati aholisining 1991-2010 yillardagi oʻsishi

№	Tumanlar	Yillar			1991 yilga nisbatan 2010 yilda oʻsishi, foiz hisobida	Viloyat aholisidagi salmogʻi, foiz hisobida
		1991	2000	2010		
	Viloyat boʻyicha:	1558,7	1959,1	2269,0	145,6	$\frac{100,0}{100,0}$
1	Mingbuloq	68,2	86,1	107,2	250,5	$\frac{4,3}{4,4}$
2	Kosonsoy	64,4	94,5	161,3	224,3	$\frac{6,8}{7,0}$
3	Namangan	119,8	155,2	184,0	153,6	$\frac{7,7}{8,0}$
4	Norin	72,5	89,6	132,4	182,6	$\frac{6,0}{5,9}$
5	Pop	122,0	151,2	175,5	143,8	$\frac{7,7}{7,7}$
6	Uychi	128,3	161,6	183,1	142,7	$\frac{7,9}{7,9}$
7	Toʻraqoʻrgʻon	128,8	154,9	187,8	145,8	$\frac{8,2}{8,3}$
8	Uchqoʻrgʻon	76,9	95,6	143,0	185,9	$\frac{6,5}{6,4}$
9	CHortoq	75,4	93,5	161,6	214,3	$\frac{7,3}{7,1}$
10	CHust	100,9	128,7	217,9	215,9	$\frac{9,6}{9,3}$
11	Yangiqoʻrgʻon	118,6	150,7	176,7	148,9	$\frac{7,4}{7,8}$

Izoh: Suratida - 1991 yilgi, maxrajida- 2010 yildagi koʻrsatkichlar.

Viloyat aholisi mustaqillik yillarida oʻrtacha yillik oʻsishi 2,4 foiz boʻlgan boʻlsa, Mingbuloq tumani aholisi esa qariyb 2,8 foizni tashkil etdi va u viloyat aholisining yillik oʻsishini 8,5 foizini taʼminlaydi. SHu davrda tuman hududi boʻyicha aholining oʻsishi barqaror kechdi. Viloyat koʻlamida aholining oʻsish surʼati boʻyicha oldingi oʻrinda turadi.

Mingbuloq tuman garchand yangi oʻzlashtirilgan hudud boʻlishiga qaramay, aholining oʻsish surʼati va ayniqsa, viloyat aholisi salmogʻidagi hissasi uncha yuqori emas (4,8 foiz). Bunga asosiy sabab tumanda sanoat ishlab chiqarish va boshqa iqtisodiy - ijtimoiy infrastrukturallarni yetarli darajada rivojlanmaganligidir.

Mingbuloq tumani aholisi 7 ta qishloq fuqarolar yigʻinlari, 41 ta mahalla kengashlari va 63 ta qishloq hududlari va 7 ta shaharchalar (Jamashoʻy, Gurtepa, Dovduq, Qugʻalikoʻl, Madyarovul, Mehnatobod va Oʻzgarish) joylashgan. Qishloq va mahalla fuqarolar yigʻinlari hududlarida 20612 ta xoʻjaliklar va 67641 ta oilalar mavjud. Qishloq aholi punktlari tuman markazi - Jomashuy shaharchasidan 5 km (Oltinkoʻl) dan 25-30 km (Boʻston, Gulbogʻ) gacha masofada joylashgan.

Mingbuloq tumani aholisi va aholi punktlari haqida 2010 yil 1 yanvarga bo'lgan ma'lumot

Qishloq fuqarolar yig'inlari	Mahalla kengashlarining soni	Qishloqlar soni	Xo'jaliklar soni	Oilalar soni	Tuman markazidan uzoqdaligi (km hisobida)	Tashkil topgan vaqti
Tuman bo'yicha	41	63	20612	27541	0	1952
Jomashuy sh.	4	0	2500	2935	0	1924
Gulbog'	9	9	3613	5647	30	1938
Gurtepa	6	14	2999	4313	7	1925
Oltinko'l	5	8	2691	3870	5	1979
Mehnatobod	5	13	2496	3054	7	1930
Momoxon	5	5	2806	3246	7	1927
Dovduq	5	7	2809	3542	9	1925
Bo'ston	2	1	698	834	25	1990

Tuman ko'lamida aholini yuqori sur'atlar bilan o'sishi birmuncha "Ko'xna" Dovduq va Gurtepa qishloq kengashlarida kuzatiladi. Bu aholi punktlarida aholini yashashi uchun sotsial-iqtisodiy infrastrukturalar nisbatan yaxshi rivojlangan. Aksincha, Gulbog', Momoxon, Bo'ston qishloqlari va Jomashuy shaharchasi aholining o'sish sur'ati tuman ko'rsatkichidan ancha past. Buni quyidagi jadval-4 da ko'rish mumkin.

Mingbuloq tuman aholisining 1992-2010 yillardagi o'sishi.

Qishloq fuqarolar yig'inlari	Maydoni km, kv	1992 y	2010 y	1992 y.ga nisbatan 2010 yilda o'sishi, foiz hisobida	Tuman aholisidagi hissasi, foiz hisobida	Aholining zichligi, har 1 km ² ga kishi hisobida
Tuman bo'yicha	740	72000	107238	150,0	100,0	144,0
Jomashuy sh.	2	9864	13428	139,8	12,5	671,0
Gulbog'	151	11987	15587	133,4	14,5	103,0
Gurtepa	110	11500	16786	145,0	15,6	153,0
Oltinko'l	153	10932	16239	150,0	15,1	107,0
Mehnatobod	88	9778	14602	149,3	13,6	166,0
Momoxon	74	8790	12412	140,0	11,5	170,0
Dovduq	70	9018	15046	166,8	14,0	215,0
Bo'ston	92	2277	3138	138,0	2,8	34,0

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, tuman aholisi keying 18 yil davomida (1992-2010) 35000 kishiga ko'paygan. 1992-2010 yillardagi o'sish sur'ati 150,0 foizdan ortiq. Yillik o'sish esa deyarli 2,7 foiz. Aholining o'sishi qishloq fuqarolari yig'inlarida turlichadir. Jumladan, Dovduq fuqarolar yig'inida bu ko'rsatkich 166,8 foizni, Gulbog'da esa atiga 133,4 dan ortiq foizni tashkil etadi xolos. Bunga sabab, bu yerlarda iqtisodiy -ijtimoiy infrastrukturallarni yaxshi rivojlanmaganligi va kelgindi millat vakillarining ketib qolishidir.

Aholining o'sishi bilan uning demografik sig'imi ham muttasil oshib bormoqda. Aholining zichligi yoki sig'imi deganda 1 kv.km hududda yashaydigan aholi soni tushuniladi. O'zbekistonda aholining o'rtacha zichligi 1 kv.km ga 62 kishi, Namangan viloyatida esa 330

kishidan iborat. Mingbuloqda bu ko`rsatkich 1992 yili 88 kishini, 2000 yili -116, 2010 yil yanvar ma`lumotga ko`ra 144 kishini tashkil etadi. Tuman ko`lamida azaldan sug`orma duhqonchilik bilan shug`ullanib kelingan Momoxon va Gurtepa qishloq fuqarolar yig`inlarida aholining zichligi har bir kv kmga 170-215 kishi to`g`ri kelsa, yangi o`zlashtirilgan hududlardagi qishloqlarda (Bo`ston) bu ko`rsatkich 34 kishidan iborat.

Aholi sonining uzluksiz o`sib borishi aholi punktlari aholi zichligining ortib borishiga olib keladi. Aholi soni va zichligini o`sib borishi aholi punktlari va mintaqalarda ishlab chiqaruvchi kuchlarni jadal rivojlantirishni taqozo qiladi. Aholi punktlarida ishlab chiqaruvchi kuchlarni, ayniqsa sanoat ishlab chiqarishini to`planishi, ularga shaharcha va shahar maqomini berishga imkoniyat yaratadi.

Mingbuloq tumanida bitta shaharcha – Jomashuy mavjud bo`lib, bunda 2010 yil 1 yanvar ma`lumotiga ko`ra deyarli 13,4 ming kishi yashaydi va tuman aholisining atiga 12,5 foizini tashkil etadi. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 13 mart 68-sonli qarori bilan respublikada, shu jumladan Mingbuloq tumanidagi Gurtepa (aholisi 4275 kishi), Dovduq (3444 kishi), Qo`g`aliko`l (4476 kishi), Madiyarovul (3294), Mehnatobod (3398) va O`zgarish (4247 kishi) qishloqlariga shaharcha maqomi berildi. Natijada tuman aholisining salmog`ida shaharliklar soni (Jamasho`y shaharcha aholisi – 13,4 ming) bilan 35742 kishini yoki jami aholining 33,4 foizini shaharliklar tashkil etdi. Bu viloyat bo`yicha eng past ko`rsatkich hisoblanadi. Viloyat bo`yicha jami aholining 64,7 foizi (ya`ni urbanizatsiya darajasi) ni shaharliklar tashkil etadi.

O`tgan XX asrning 70-80 yillarigacha tuman aholisi tabiiy ko`payishi bo`yicha viloyatda oldingi o`rinda turadi. Xususan, 1985 yili har ming kishiga nisbatan tug`ilish 36 promilleni, o`lish 7 promilleni, tabiiy ko`payish esa 29 promilleni tashkil etgan. 1995 yildan keyin aholi o`rtasida tug`ilish nisbatan kamayib bormoqda. Bunday bo`lishi aholining iqtisodiy va ijtimoiy holati, xususan mamlakatda bozor munosabatlarini tez sur`atlarda rivojlanayotgani va xotin qizlarning ijtimoiy ishlab chiqarishda faol ishtiroki bilan belgilanadi. SHu tufayli hozir tumanda tug`ilish 18,5 promilleni, o`lish 3,7 promilleni, tabiiy ko`payish esa 14,8 promilleni tashkil qilmoqda. Bu yerda tug`ilish bilan birga o`lim sur`atini kamayib borayotganini ko`rish mumkin. Bu holat jadval-5 da aks ettirilgan.

Jadval, 6

Mingbuloq tumani aholisining 2010 yilgi tabiiy ko`payishi

Qishloq fuqarolar yig`inlari	tug`ilish	o`lim	Tabiiy ko`payish
Tuman bo`yicha	18,5	3,7	14,8
Jomashuy sh.	16,7	5,2	11,6
Gulbog`	15,7	3,8	11,9
Gurtepa	21,6	2,8	18,8
Oltinko`l	22,3	3,5	18,8
Mehnatobod	18,8	4,1	14,7
Momoxon	16,9	3,8	13,1
Dovduq	17,1	3,2	13,9
Bo`ston	16,9	3,0	13,9

Jadval tahlili shuni isbotladiki, tuman aholisining o`rtacha tug`ilish ko`rsatkichi bir muncha yuqori. Ayniqsa, Oltinko`l, Gurtepa va Mehnatobod qishloq fuqarolar yig`inlarida tug`ilish ko`rsatkichi 17-22 promilleni tashkil etadi. O`z navbatida, o`lim ko`rsatkichi ham yuqoridagi aholi punktlari va Jomashuy shaharchasida birmuncha yuqori.

Aholining tabiiy o`shishining yuqoriligi tarixiy va milliy urf-odatlar, aholining milliy tarkibi, ko`p bolalikning saqlanib qolganligi va ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanmaganlik darajasi bilan izohlanadi. Tumanda hozirgi kunda 4 va undan ortiq bolali oilalar soni 5301 tani, ya`ni jami oilalarning 22 foizini tashkil qiladi.

Tuman aholisining umumiy o`shida aholining mexanik ko`payishi, xususan migratsiya uncha katta salmoqqa ega bo`lmasada, ammo uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari sezilarlidir. Ayniqsa, XX asrning 50-70 yillarida Markaziy Farg`ona yerlarini jadal o`zlashtirilishi aholining migratsion faolligini oshishiga olib keldi. Natijada, shu davrda Markaziy Farg`onaga, xususan Mingbuloq tumaniga ham minglab kishilar ko`chib keldi. Aholi asosan Andijon, Namangan va Farg`ona viloyatlarining Mingbuloq tumaniga yaqin joylaridan, shuningdek, tuman yerlarini o`zlashtirilishi uchun birlashtirilgan tumanlardan (Namangan viloyatining Uychi, Namangan, To`raqo`rg`on, Pop, Farg`ona viloyatining Qo`qon atrofidagi tumanlardan) ko`chib keldi. SHu davrda Mingbuloq tuman aholisining o`shida migratsiyaning hisyasi 10-12 foiz bo`ldi.

O`zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin Mingbuloq tumani aholisining migratsion faolligi barqarorlashdi. Tumanda mavsumiy ko`chib keluvchi kishilar ham bor. Aholi Qo`qon atrofidan, To`raqo`rg`on va Pop tumanlaridan mavsumli ishlash uchun kechib keladi.

Keyingi yillarda tumandan ko`chib ketuvchilar soni ko`paymoqda. Jumladan, 2010 yili tumandan 250 kishi ketgan bo`lsa, 235 kishi kelgan. Buning asosiy sababi tumanda iqtisodiy islohotlarni talab darajasida rivojlanmayotganligi, xususan tadbirkorlikni rivojlantirishga e`tiborni kuchaytirilmaganligi, ijtimoiy infrastrukturani yaxshi rivojlanmaganligi va ayniqsa, chet el va mahalliy sarmoyalarini jalb etishga e`tibor yetarli darajada berilmayotganligidir.

Aholi o`rtasida tabiiy ko`payishni birmuncha barqarorligi, migratsiyaning foydali koeffitsientining yaxshi emasligi va ishlab chiqaruvchi kuchlarni sust rivojlanganligi hamda boshqa qator omillar aholining yosh, jinsiy, milliy tarkibiga hamda ma`lumot darajasiga ta`sir qilgan.

Tuman aholisining umumiy sonida yoshlarning salmog`i yuqoridir. Bunday bo`lishiga sabab tug`ilishning birmuncha yuqoriligi oqibatidir.

Jadval, 7

Mingbuloq tumani aholisining yosh va jinsiy tarkibi (2010 yil)

	Aholining tabaqalari								nafaqaxo`rlar	SHu jumladan ayollar	nogironlar	SHu jumladan ayollar	Ko`p bolali (4 va undan ortiq)
	0-6 yoshlar		7-15 yoshlar		16-60 yoshli erkalar	16-35 yoshli ayollar	60 yoshdan katta erkalar	55 yoshdan katta ayollar					
Tuman bo`yicha	8396	8807	11706	12339	22996	22795	4138	4855	9017	5040	1935	991	6301
Jomashuysh.	921	1006	1386	1669	2789	3035	480	584	712	389	643	359	538
Gulbog`	1257	1299	1412	1539	3019	2824	1395	1541	2940	1514	332	186	1085
Gurtepa	1183	1249	2224	2283	3767	3700	394	360	1293	768	274	132	932
Oltinko`l	1059	1086	1880	1977	3773	3741	330	404	824	503	162	76	1040
Mehnatobod	1493	1631	4489	4537	3070	2849	339	473	840	487	452	67	737
Momoxon	989	1027	4433	1458	2612	2559	340	404	909	557	233	144	678
Dovduq	1348	1397	1574	1557	3076	3263	860	853	1378	734	199	57	1191
Bo`ston	136	112	306	329	890	824	30	39	121	82	0	0	130

YUqoridagi javaldan ko`rinib turibdiki, aholining asosiy qismini 0-15 va 16-55 yoshdagi ayollar, hamda 16-60 yoshdagi erkaklar tashkil qiladi. Olib qaraydigan bo`lsak, jami aholining qariyb 90 foizini 0-60 yoshdagi aholi tashkil qiladi. Nafaqachilar salmog`i yuqori emas. Tumanda atiga 5 kishi 100 va undan ortiq yoshdadir. 2010 yil 1 yanvar ma`lumotiga ko`ra tuman aholisining 49,2 foizni erkaklar, 50,8 foizini ayollar tashkil etadi.

SHuni ta`kidlash kerakki, mamlakatimizdagidek, mahalliy millat vakillari orasida erkaklar bilan ayollar o`rtasidagi nisbat deyarli tengdir. Asosan kelgindi millat vakillari orasida erkaklar va ayollar o`rtasidagi farq katta. Aholining 0-6 yoshdagilar orasida o`g`il bolalar bilan qizlar o`rtasidagi nisbatida ham qizlar o`g`il bolalarga nisbatan 411 ta ko`p (yuqoridagi jadval-6 ga qarang).

Jadval, 8**Tuman aholining jinsiy tarkibi**

Fuqarolar yig`ini	Jami aholisi	SHu jumladan	
		erkaklar	ayollar
Tuman bo`yicha	100,0	49,2	50,8
Jomashuy sh.	100,0	47,0	53,0
Gulbog`	100,0	49,6	50,4
Gurtepa	100,0	49,3	50,7
Oltinko`l	100,0	49,4	50,6
Mehnatobod	100,0	49,8	50,2
Momoxon	100,0	49,9	50,1
Dovduq	100,0	49,3	50,7
Bo`ston	100,0	51,2	48,2

Tuman aholisining milliy tarkibi 30-40 yil mobaynida nihoyatda sezilarli o`zgardi. Quyidagi jadvaldan ko`rinib turibdiki, u ko`p millatli hududga aylandi. CHunki tumanning o`zlashtirishda turli millat vakillari qatnashgan. Bugungi kunda tuman hududida 18 dan ortiq millat vakillari istiqomat qiladi.

Jadval,9**Tuman aholisining milliy tarkibi (2010 y)**

Millatlar nomi	Salmog`i foiz hisobida
Jami aholi	100,0
O`zbeklar	97,9
Koreyslar	0,2
Ruslar	0,3
Qirg`izlar	0,35
Tojiklar	0,43
Qozoqlar	0,1
Boshqa millatlar	0,72

YUqoridagi jadvaldan ko`rinib turibdiki, tuman aholisining asosiy qismini 10 ga yaqin millat vakillari tashkil etadi. Bu millat vakillari tuman bo`yicha turlicha taqsimlangan. Qirg`izlarni katta qismi Gulbog`da va Oltinko`lda, tojiklar Gurtepada, tatar hamda koreyslar esa Jomashuyda ko`pchilikni tashkil qiladi. Tumanda o`zbek, rus, koreys, tojik, qirg`iz, tatar, qozoq va boshqa millat vakillari yashaydi. Bunga sabab, tuman hududining keyingi yillarda jadal

o'zlashtirishda turli millat vakillarining faol ishtirok etishidir. XVII asrda Sirdaryo bo'ylariga qoraqalpoqlar kelib o'rnashgan. Ular Sirdaryo bo'yi mintaqasidagi Momoxon, Dovduq qishloq kengashlarida, Gigant, Gulbog' fermer xo'jaliklarining markaziy qismida va Jomashuy shaharchasi va qisman qishloqlarda yashaydi. Tatarlar va koreyslar esa 30 yillarda kelib o'rnashib, ular Gigant qishlog'ida va Jumashuy shaharchasida yashaydilar.

Tuman aholisining ma'lumot darajasi viloyatning boshqa tumanlaridan birmuncha farq qiladi. eng avvalo, tuman aholisining tarkibida oliy va o'rta maxsus ma'lumotli kishilarning, shuningdek, yuqori malakali xodimlarning etishmasligi yaqqol sezilib turadi. Bunday bo'lishida tumanni yangi o'zlashtirilgan hududda joylashganligi, o'rta, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimidagi kadrlar tayyorlashdagi hududlar ehtiyojini e'tiborga olmaslik ta'sir qiladi. Hozir tumanning Dovduq, Bo'ston, Oltinko'l va Mehnatobod qishloqlarida o'rta maxsus va oliy ma'lumotga ega bo'lgan, malakali xodimlar etishmasligi yaqqol seziladi. Bu borada respublika Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining 1996 yil may oyidagi qishloq joylarida sotsial infrastrukturani yanada rivojlantirish, 1997 yili "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" haqidagi va ayniqsa 2010 yilgi "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili", deb e'lon qilinishi farmonlari juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu farmonlarga asosan tumanning sotsial infrastrukturasi rivojlantirish bo'yicha dasturlar tuzilib, ularda xo'jalik tarmoqlarini malakali va ma'lumotli xodimlar bilan ta'minlash masalalari o'z aksini topgan.

Mingbuloq tumani viloyatning boshqa tumanlariga qaraganda ijtimoiy ishlab chiqarishda faol qatnashishi mumkin bo'lgan mehnatga layoqatli yoshlar bilan yaxshi ta'minlangan. Ammo, mehnat resurslarini tarkibida xo'jalikni ko'pgina sohalari uchun zarur bo'lgan yuqori malakali mutaxassis xodimlarni yetishmasligi sezilib turadi. Hozir tuman aholisining 52,4 ming kishisini 16-60 yoshgacha bo'lganlar tashkil qiladi. Bularning deyarli 97 foizi mehnatga layoqatlidir.

Jadval, 10

Mingbuloq tumani mehnat resurslarining xo'jalik tarmoqlarida taqsimlanishi

Xo'jalik tarmoqlari	Jami band aholi (kishi)	Jami band aholiga nisbatan foiz hisobida
Jami mehnat resurs-lari	52400	100,0
SHundan ayollar	24400	47,5
Xo'jalik tarmoqlarida	-	
SHu jumladan:	-	
Sanoatda	1700	4,4
Qurilishda	700	1,8
Qishloq xo'jaligida	21600	56,4
Transportda	300	0,8
Savdo va maishiy xizmat	700	1,8
Sog'liqni saqlashda	1700	4,4
Xalq ta'limida	3100	8,1
Boshqa tarmoqlarda	8500	22,3

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, mavjud 52,4 ming kishidan iborat mehnat resurslarining 38,3 ming kishi yoki 73,0 foiz tuman xalq ho'jaligining turli tarmoqlarida banddir. Halq ho'jaligida band aholining 57,0 foizidan ko'prog'i qishloq ho'jaligida band. Demak, tuman iqtisodiyotining asosiy tarmog'i qishloq ho'jaligidir.

Keyingi 5-6 yil ichida tumanda ko'plab fermer xo'jaliklar va kichik korxonalar tashkil etildi. Ayniqsa, xususiylashtirishga katta e'tibor berildi. Natijada, mehnat resurslarini ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etishi kuchaydi. Faqatgina 2011 yili ish joyi yaratish hisobiga 5242 kishi, kichik korxonalarini tashkil etish hisobiga 676 kishi, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan holda tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha 40 kishi, uy mehnatini tashkil etish hisobiga 1844 kishi, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha 171 kishi va boshqa manbalar bo'yicha 1787

kishi ish bilan ta'minlandi. SHunga qaramasdan mehnat resurslarini ko'pligi va mehnatga yaroqli kishilarni agrar sektordan bo'shashi va tadbirkorlikni rivojlantirish yo'li bilan aholini ish bilan ta'minlash lozim. Aks holda ishsizlar sonini ortiqchaligi turli ijtimoiy xolatlarni sodir bo'lishiga olib keladi.

2.3 Ho'jaligi va uning rivojlanishini takomillashtirish

Tuman xo'jaligi majmuining asosiy tarmog'ini **qishloq xo'jaligi** tashkil etadi. Xo'jalik yalpi mahsulot hajmining 75,1 foizi, mehnat resurslarining 57,0 foizi shu tarmoq xissasiga to'g'ri keladi. Bu tarmoq aholining iste'mol mollari, sanoat ishlab chiqarishini esa xom ashyo bilan ta'minlaydi.

Qishloq xo'jaligi xalq xo'jaligining muhim tarmog'i bo'lib, u ikki yirik tarmoqqa - dehqonchilik (ziroatchilik) va chorvachilikka bo'linadi. Bu tarmoqlar ham o'z navbatida quyi tarmoqchalarga bo'linadi. Masalan, dehqonchilik, paxtachilik, g'allachilik, bog'dorchilik, sabzavotchilik, polizchilik, chorvachilik esa qoramolchilik, qo'ychilik, echkichilik, yilqichilik, parrandachilik, pillachilik, asalarichilik va dehqonchilik kabilarga bo'linadi.

Mingbuloq tumanida qishloq xo'jaligining bir tarmoqlar turli darajada rivojlangan. CHunki hududning tabiiy, iqlim, tuproq hamda suv sharoitlari shuni taqozo etadi. Ularni samarali rivojlantirish uchun tuman hududining barcha imkoniyatlaridan foydalanish uchun qator amaliy choralar amalga oshirilmoqda. Jumladan, so'nggi yillarda qishloq xo'jaligi va uning tarmoqlari moddiy texnika bazasini mustahkamlash ishlari olib borildi va bu ishlar hozir ham davom etmoqda. Markazlashgan qishloq xo'jaligi texnikalarini ta'mirlash korxonasi tashkil etildi. O'nlab gektar maydonlar o'zlashtirilib, ekin maydoni oborotiga kiritildi. 220 km dan ortiq ariq va zovurlar qazilib, ularda suv yetkazish yaxshilandi. Oqqum, SHO'rsuv (Qo'shqishloq), Bo'ston qishloqlari, Istiqbol va Gigant fermer xo'jaliklari hududlarida zovurlar qazildi. SHuningdek, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tuman tabiiy - iqlim sharoiti xususiyatlari hamda ehtiyoji asosida rivojlantirishga e'tibor kuchaytirildi. SHoli, bug'doy, em-xashak va bog' ekin maydonlari kengaytirildi. Qolaversa, 600 dan ortiq oilaga uy-joy va tomorqa yerlari berildi.

Ayniqsa, qishloq xo'jaligini bozor iqtisodiyoti munosabatlari asosida boshqarish va rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda. Barcha xo'jaliklar xususiylashtirilib fermer va dehqon-fermer xo'jaligi va ijarachilik shakllari asosida boshqarilmoqda. Tuman qishloq xo'jaligi mulkchilik shakliga ko'ra 809 ta fermer xo'jaliklari, 30 ta dehqon xo'jaliklari, o'quv tajriba uchastkalari, aholining shaxsiy yordamchi xo'jalik sektorlari mavjud bo'lib, 20,1 mingdan ortiq kishi mehnat qilmoqda.

Keyingi yillarda donli ekinlar, bog'dorchilik maydonlari hamda dehqon-fermer xo'jaliklarning yer maydonlari kengaydi. Respublika mustaqillikka erishgandan keyin g'alla mustaqilligiga erishish uchun amalga oshirilgan chora-tadbirlar tufayli donli ekinlar, eng avvalo bug'doy ekin maydoni sezilarli ravishda kengaydi va jami ekin maydonining 25,5 foizini tashkil etdi. (Kuyidagi jadval) ga qarang

Jadval, 11

Tuman yer fondining 2010 yil bo'yicha taqsimlanishi (foiz hisobida)

Ko'rsatkichlar nomi	Jami ga nisbatan foiz hisobida
Foydalaniladigan umumiy maydon-jami	100,0
SHundan:	
Paxta maydoni	59,2
Donli ekinlar	25,5
Sabzavot va poliz ekinlari	0,7
Em-xashak ekinlari	7,2
Ekilmagan yer maydoni	7,4

Natijada, g'alla yalpi hosili, xususan bug'doy yalpi hosili 2010 yilga kelib, 50585 tonnani yoki hosildorlik 46,9 ts/ga ni tashkil etdi. Bundan tashqari, sabzavot va poliz mahsulotlari etishtirish hajmi keskin ko'paydi.

Hozir tuman hududida qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar 35542 ga bo'lib, uning qariyb 99,2 foizi fermer xo'jaliklari yerlari 1,0 foizi esa yordamchi xo'jalikka qarashli yerlardir. Bu holat jadval-11 da aks ettirilgan.

Jadval, 12

**Tuman shirkat xo'jaliklari yer fondining taqsimlanishi
(2010 yil)**

№	Xo'jaliklar nomi	Umumiy maydon, ga	Qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar		Aholining shaxsiy xo'jaligiga qarashli yerlar	
			Ga	Foiz hisobida	Ga	Foiz hisobida
1	Tuman bo'yicha	56304	35542	100,0	2995	100,0
	SHu jumladan:					
2	A.Temur nomli hudud	3726	2722	7,7	429	14,3
3	Gigant nomli hudud	6002	4121	11,6	439	14,7
4	Gulbog' nomli hudud	9484	7258	20,4	505	16,9
5	Navoiy nomli hudud	4173	2787	7,8	406	13,6
6.	Namangan nomli hudud	3938	2531	7,1	355	11,9
7	Istiqlol nomli hudud	5870	4349	12,2	-	14,7
8	Xorazm nomli hudud	4723	3218	9,1	151	5,0
9	Guliston hududi	7274	4867	13,7	126	4,2
10	Farg'ona hududi	6220	3313	9,3	440	-
9	Fermer xo'jaliklari yerlari	54410	35167	99,2	-	-
10	Tashkilotlarning yordamchi xo'jalik yerlari	411	360	1,0	-	-
11	Boshqa yerlar	4483	16	0,01	144	4,8

Tuman qishloq xo'jaligida hududning iqlim, yer-suv va mehnat resurslaridan hamda xalqning asrlar davomida to'plangan dehqonchilik madaniyatidan unumli foydalanish negizida paxtachilik etakchi tarmoq sifatida shakllangan. Ayni paytda, g'allachilik, bog'dorchilik, polizchilik, sabzavotchilik sohalari, chorvachilikning qoramolchilik, qo'ychilik, echkichilik, parrandachilik va pillachilik sohalari ham muhim tarmoqlarga kiradi.

Tuman dehqonchiligining, qolaversa qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining asosini paxtachilik tashkil etadi. Paxtachilik tuman hududining agroiqlim omillari va mehnat resurslarining malaka va ko'nikmalariga asoslangan holda rivojlangan. Afsuski, keyingi yillarda paxtachilikda rejadagi ko'zlangan paxta hosili olinmayotir. Bunga sabab paxta maydonlarida yer osti suvlarining ko'tarilishi, yerlarni sho'rlanishi, almashlab ekishni to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi, o'z vaqtida o'g'itni yetarli miqdorda berilmaslik va boshqa agrotexnik qoidalarga rioya qilmaslik, shuningdek, keyingi yillarda ko'sak qurtining ko'payib hali paxta ochilmasdan turib, uni nobud qilayotganligidir. SHunday bo'lsada, paxta yalpi hosili yil sayin ko'payib bormoqda. Viloyatda 2010 qishloq xo'jaligi yilida 34,4 ming tonnaga yaqin paxta yalpi hosili olingan bo'lib, hosildorlik 21,4 ts/ga ni tashkil etdi. Bu holatni quyidagi jadval-12 da ko'riladi.

Jadval, 13

Tumanda 2010 yilda paxta etishtirish

Xo`jaliklar nomi	Paxta ekin maydoni, ga	YAlpi hosil, tonna	Xosildorlik, ts/ga
Tuman bo`yicha jami	19656	34376	21,4
SHu jumladan:			
A.Temur	698	1613	23,1
Gigant	1487	4171	28,0
Gulbog`	2357	5409	22,9
Navoiy	1193	2534	21,2
Namangan	880	1123	12,8
Istiqlol.	1806	4110	22,8
Xorazm	1285	1792	13,9
Guliston	1600	15450	20,2
Farg`ona	1300	15300	22,3
Fermer xo`jaliklari	18875	31600	21,2
Boshqa tashkilotlar	781	2776	13,3

Mingbuloq tumani yetakchi paxta yetishtiruvchi mintaqa bo`lib, viloyat paxta yalpi hosilining deyarli 14 %ni yetkazib beradi.

Republikamiz mustaqillikka erishgandan keyin aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo`lgan ehtiyojini to`la qondirish maqsadida g`alla mustaqilligini ta`minlash chora-tadbirlari amalga oshirildi. Bu esa, g`alla hosildorligini yil sayin oshishiga olib keldi. Natijada 2009 yili 49282 tonna g`alla yetishtirilgan bo`lsa, 2010 yilda bu ko`rsatkich 50585 tonnani tashkil etdi. Bu hosildorlikning oshishi bilan bog`liq bo`ladi.

Jadval, 14**Tumanda 2010 yilda g`alla (bug`doy) yetishtirish**

Xo`jaliklar nomi	G`alla ekin maydoni, ga	Yalpi hosil, tonna	Tuman yalpi hosilidagi xissasi. Foiz hisobida	Hosildorlik ts/ga
Tuman bo`yicha jami	8468	50585,0	100,0	46,9
SHu jumladan:				
A.Temur	589	2239,0	6,4	38,0
Gigant	726	3970,0	11,4	54,7
Gulbog`	1290	5212,0	14,9	40,4
Navoiy	743	2680,0	7,7	44,1
Namangan	451	1418,0	4,0	31,4
Istiqlol.	856	3525,0	10,0	41,2
Xorazm	134	1771,0	5,0	31,6
Guliston	2500	10202	26,0	31,2
Farg`ona	2589	10212	22,4	42,1
Fermer xo`jaliklari	8288		98,4	4,7
Boshqa tashkilotlar	180	50034,4	1,6	30,8

12-jadval tahlili shuni ko`rsatadiki, ja`mi g`alla yalpi hosilning 98,4 foiz fermer xo`jaliklari, 1,6 foizi boshqa xo`jaliklari xissasiga to`g`ri keladi. G`alla hosildorligi bo`yicha katta tafovut mavjud. Jumladan, tuman bo`yicha g`alla hosildorligi o`rtacha 46,9 ts/ga tashkil etgani holda Namangan, Xorazm va Navoiy nomli xo`jaliklarida bu ko`rsatkich 36,4-44,1 ts/ga ni tashkil etadi. Yuqori hosildorlikka esa Gigant fermer xo`jaligi erishgan bo`lib, hosildorlik 55,0 ts/gadan iborat. Ilg`or fermer xo`jaliklari va pudratchilarida esa bu ko`rsatkich 58-60 ts/gani tashkil etadi. 2009 yil hosildorlik 46,5 tsentnerga bo`lsa, 2010 yili bu ko`rsatkich 46,9 tsentnerga

yetdi. 2009-2010 yillarda boshqoli g'alla maydonlari 8081,6 ga. dan 8465 ga.ga, ya'ni 104,7 foizga o'sdi. Binobarin, tuman qishloq xo'jaligi ekin maydonlarida g'alla maydonlarining salmog'i 25,5 foizni tashkil etadi.

Tumanda ishlab chiqarilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarining barchasi iqtisodiyotning nodavlat sektoriga to'g'ri keladi.

Jadval, 15

Tuman dehqonchilik mahsulotlari yetishtirish (2004 yil)

Ekin turlari	Yalpi hosil tonna hisobida
Paxta	34376
Jami g'alla	50585
Kartoshka	14628
Sabzavot	11670
Poliz	14700
Meva	4240
Uzum	1005

Tuman dehqonchiligi asosan paxta, g'alla qisman poliz va sabzavot mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashgani uchun, u yerda sabzavot, kartoshka va bog'dorchilik mahsulotlari yetishtirish yetarli rivojlanmagan. Bu holat esa aholining bu mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojini to'la ta'minlay olmaydi. SHuning uchun kelajakda sabzavot, kartoshka, bog'dorchilik va uzumchilik kabi tarmoqlarni rivojlantirishga e'tiborni kuchaytirish lozim.

Tumanda chorvachilikni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Dehqonchilik uchun yaroqsiz yerlarni mavjudligi, keng ko'lamdagi g'alla (bug'doy, sholi, makkajo'xori va jo'xori) maydonlariga egaligi va boshqa omillar tumanda chorvachilikning mustahkam ozuqa bazasini yaratishga zamin yaratadi. Ammo, tuman qishloq xo'jaligida, xususan chorvachiligida bozor iqtisodiyoti islohotlarini talab darajasida rivojlanmaganligi, ayniqsa bozor munosabatlarini (xususiylashtirish) avj oldirilmayotganligi tufayli bu tarmoqda ko'zlangan natijaga erishilmayotir. Oqibatda, tuman qishloq xo'jaligi mahsulotini ishlab chiqarish hajmida chorvachilikning salmog'i atiga 3,2 foizni tashkil etadi, xolos. Boz ustiga keyingi yillarda chorvachilikning mustahkam ozuqa bazasini yaratish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga e'tiborsizlik tufayli chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi kamayib bormoqda.

Jadval,16

Tumanda 2010 yilda chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish

Mahsulot nomi	O'lchov birligi	Yalpi mahsulot
Go'sht	Tonna	4486
Sut	Tonna	27206
Tuxum	Ming dona	8338
Jun	Kg	23,4

CHorvachilikning an'anaviy tarmog'i, "etti xazinaning biri"-parrandachilik taraqqiyot taqdiri ham e'tibordan chetda qolayotir. Bu tarmoqda ham mahsulot ishlab chiqarish hajmi yildan - yilga kamayib bormoqda.

Tuman qishloq xo'jaligining istiqbolli tarmog'i pillachilikda esa etarli ozuqa bazasi bo'lishiga qaramay, tut plantatsiyalarining qarovsizligi tufayli 2010 yilda pilla yalpi hosili rejasi faqatgina "Gigant" va "Xorazm" shirkat xo'jaligida bajarilgan xolos. Buni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin.

Jadval, 17

Tuman xo'jaliklarida 2010 yilgi pilla etishtirish.

Xo'jaliklar nomi	Reja, tonna	Haqiqatda bajarildi, tonna
Tuman bo'yicha jami	80,8	78,3
SHu jumladan:		
A.Temur	13,0	12,5

Gigant	12,0	12,0
Gulbog'	8,0	8,0
Navoiy	14,6	13,6
Namangan	8,4	8,4
Istiqbol	11,8	11,8
Xorazm	2,0	2,0
Guliston	3,0	2,5
Farg'ona	8,0	7,5

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, pillachilikni samarali rivojlantirish sharoitlari bo'lgan Gulbog', Navoiy va Istiqlol fermer xo'jaliklari va fermer xo'jaliklarida pilla yalpi hosil rejasi uddalangan. Ammo etarli imkoniyatlar bo'lgan Guliston, Farg'ona, A.Navoiy va A.Temur nomli fermer xo'jaliklari rejani bajarmagan.

Mingbuloq tumani qishloq xo'jaligi va uning tarmoqlarida mahsulot ishlab chiqarish samaradorligi o'rganish echilishi kerak bo'lgan qator dolzarb masalalarni aniqlab berdi. eng avvalo, qishloq xo'jaligiga yaroqli, ayniqsa, dehqonchilik ekin maydonlarining aglomeleorativ holatini yaxshilashga jiddiy e'tibor berish, erga bo'lgan mulkchilik munosabatlarini o'zgartirish, tadbirkorlikka katta imkoniyat yaratish, fermer, dehqon - fermer xo'jaliklari, ijara va pudrat xo'jalik shakllarini avj oldirish, eng muhimi qishloq aholisini ish joylari bilan band qilish asosida uning turmush farovonligini oshirish shular jumlasiga kiradi.

Mingbuloq tumani hududida **sanoat**ning neft qazish, qurilish materiallari (g'isht) ishlab chiqarish, paxta tozalash, tikuvchilik kabi sohalari rivojlangan.

XIX asrning 70-yillaridan boshlab dastlabki – fabrika - zavod ishlab chiqarishi rivojlana boshladi. Namangan viloyatida XX asrning boshlarida Rossiya kapitalining kirib kelishi bilan dastlabki paxta tozalash korxonalari barpo etildi. Besh yilliklar davrida eski paxta tozalash zavodlari tubdan qayta ta'mirlandi va moddiy texnika asoslari yaratildi. Kichik paxta tozalash zavodlari o'rnida 11 ta yangi zamonaviy texnika bilan qurollangan yirik korxonalar qurildi. Ular asosan xom ashyo mintaqalari va tuman markazlari - CHust, Pop, Gulbog', Uchqo'rg'on, Norin, CHortoq, Qizilrovotda barpo etildi.

SHulardan Gulbog' paxta tozalash zavodi tumandagi Gulbog' qishloq fuqarolar yig'ini hududida tashkil etildi. Hozir zavod Gulbog' paxta tozalash hissadorlik jamiyatiga aylantirilgan bo'lib, u O'zbekiston paxta tayyorlash va qayta ishlash sanoati birlashmasiga qaraydi. Hozirgi kunda korxonada 465 kishidan ortiq ishchi va xizmatchilar mehnat qilmoqda.

Korxonada asosan paxta tozalash, undan tola, chigit, momiq va pux ishlab chiqariladi. Korxonaning mahsuloti Respublikaning to'qimachilik sanoat korxonalariga, shuningdek, Rossiya, Pokiston, YUgoslaviya, Italiya, Ispaniya, Isroil va Pol'sha kabi xorijiy mamlakatlarga eksport qilinadi.

Tumandagi yana bir etakchi korxonalar – mahalliy sanoat ishlab chiqarish kombinatidir. U 1990 yilda tashkil topgan. Ishlab chiqarishning asosi tikuvchilik, to'quvchilik va turli pullik xizmatlar ko'rsatishdan iborat. Korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tuman aholisi iste'moliga chiqariladi. Bundan tashqari Gigant paxta tozalash zavodi, kichik korxonalardan bosmaxona, "Sosna" shirkati, maishiy xizmat uskunalari ta'mirlash ustaxonasi, "Abdulboriyav" xususiy firmasiga qarashli Jo'mashuy qurilish savdo korxonasi, agrofirma non kombinati va Navoiy nomli xo'jaligi hududidagi g'isht zavodi bo'lib, ulardagi ishlovchilarning soni 181 nafarni tashkil etadi. Bu korxonalarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari nodavlat sektori xissasiga to'g'ri keladi.

Tuman bosmaxonasi ham 1971 yilda tashkil etilgan bo'lib, uning asosiy byurtmachisi tuman "Mingbuloq" ro'znomasi hisoblanadi. Ro'znoma haftada bir marta 3020 nushada chop etiladi. SHuningdek, korxonalar, tashkilot va muassasalarning ish qog'ozlarini ham tayyorlab beradi.

O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini dastlabki yillarida tuman hududida ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlantirish, chet el sarmoyalarini jalb etish va yangi-yangi

korxonalarini ishga tushirishi borasida katta amaliy ishlar qilingan. Natijada tumanning industrial qiyofasi bir muncha o'zgardi (jadval-17 ga qarang)

Jadval, 18

Mingbuloq tumanida 2010 yilda faoliyat ko'rsatayotgan fermer va kichik korxonalar

Nomi	O'Ichov birligi	jami
SHirkat va kichik korxonalar	Ta	132
Maishiy xizmat	Ta	225
Sanoat	Ta	8
Qurilish	Ta	7
Qishloq xo'jaligi	Ta	727
Boshqa korxonalar	Ta	7

Italiyaning "Adidas" firmasi bilan qo'shma korxonalar Namangan, Istiqlol shirkat xo'jaliklari hududlarida gilam, shoyi, atlas hamda Namangan to'qimachilik kombinatining filiali sifatida tashkil etilgan fabrikada beqasam to'qish tseklari qurilib, tezda ishga tushirildi. YUzlab mehnat resurslari ish bilan ta'minlandi. Ming afsus, bular hozir ish faoliyatini barqaror emas.

SHuningdek, tumanning qishloqlari hamda chekka mahallarida qandolatchilik va boshqa kichik korxonalar tashkil etildi. Oziq-ovqat mahsulotlari esa "Umumiy ovqatlanish", "Non" kombinati va xususiy korxonalar tomonidan ishlab chiqarilmoqda. Hozirda (2010 yil, yanvar) tumanda aholi jon boshiga 228,6 ming so'mlik sanoat mahsuloti, 28,7 ming so'mlik xalq iste'moli mollari ishlab chiqarilmoqda. Bu esa viloyatning boshqa tumanlariga nisbatan ancha past ko'rsatkichdir. Qolaversa, Mingbuloq tumani industrilashtirish darajasi bo'yicha viloyatda oxirgi o'rinda turadi. Tuman qishloq xo'jaligi va sanoat ishlab chiqarishi yalpi mahsulot hajmi bo'yicha sanoatning xissasi atiga 2,5 foizni tashkil etadi, xolos.

Qurilish va qurilish materiallari ishlab chiqarish tuman moddiy ishlab chiqarishning eng muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. 2010 yilda qurilish sohasida 1,5 ming kishi mehnat bilan band bo'lgan. Qurilish ishlari pudrat, yordamchi pudrat va qisman xo'jalik usullarida olib borilmoqda. 2010 yilda tumanda barcha manbalar hisobiga 11921,2 million so'mlik kapital mablag'lar o'zlashtirildi. 2010 yilda tumandagi mavjud qurilish tashkilotlari tomonidan o'z kuchi bilan joriy narxlarda 15383,7 million so'mlik qurilish mantaj ishlari bajarildi. Tuman hududida 7 ta qurilish tashkilotlari etti xil g'isht zavodi (eng yirik korxonalar Navoiy fermer xo'jaligi hududidagi g'isht zavodi) va asfal't zavodi mavjud. Qurilish tashkilotlarining deyarli yarmi suv xo'jaligi va inshootlarini qurish bilan shug'ullanadi.

Tuman qurilish materiallariga bo'lgan ehtiyojini to'la qondira olmaydi. Deyarli 60 foizdan ortiq qurilish materiallarini boshqa hududlardan olib kelinadi. Vaholanki, tuman hududi qurilish materiallari ishlab chiqarish uchun kerakli xomashyoga boydir.

Tuman xo'jaligining nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlari orasida transporti xizmatida avtomobil transporti etakchi o'rinni egallaydi. CHunki, tuman hududida temir yo'l tarmog'i rivojlanmagan. eng yaqin temir yo'l bekati To'raqo'rg'on tumanidagi Oq tosh shaharchasi (12 km masofada) va Pop tumanining Qoraqalpoq bekati 32 km masofada turadi.

Aholiga transport xizmatini ko'rsatishga tuman avtomobil yo'llarini qurish boshqarmasining ahamiyati katta. Boshqarma 1990 yil tashkil etilgan. U Namangan viloyat avtomobil yo'llari qurilish boshqarmasiga qaraydi. Boshqarmada qariyb 2,3 ming kishi ishlaydi.

Tumandagi asfal't yo'llarining uzunligi 2866 kmdan ortiq. Transport tarmoqlarida band bo'lgan ishlovchi va xizmatchilarni o'rtacha yillik soni 1,6 ming kishini tashkil etadi. Avtomobil transportida yuk va yo'lovchi tashishda xususiy sektor salmoqli o'rin tutadi. Tuman transport xizmatini 86-avtokorxonalar amalga oshiradi. Avtokorxonada 50 nafardan ortiq kishi ishlaydi.

Aloqa xizmatini amalga oshirish uchun 1952 yili aloqa bo'limi tashkil etildi. Hozirgi kunda tuman hududida joylashgan 14 ta ATSlarda 5428 ta telefon nomeri ishlab turibdi. (tumanda aholiga aloqa xizmati ko'rsatish holati jadval18 da berilgan).

Tumanda 2010 yilda aholiga aloqa xizmati ko`rsatish xolati

Ko`rsatkichlar	O`lchov birligi	ko`rsatkichlar
Telefon stantsiyalari	Dona	12
Mavjud quvvati (nomerlari)	Dona	5428
O`rnatilgan telefonlar soni	Dona	92
Ishlovchilar soni	Kishi	45
Jami daromad	Ming so`m	186653,3
Pochta aloqa bog`lamasi	Birlik	13
Ishlovchilar soni	Kishi	50
Jami daromad	Ming so`m	239129,4

Tumanda aloqa bo`limlari aholi, xo`jalik sub`ektlari, davlat idoralarining pochta, telefon, telegraf axborotlarini uzatish va qabul qilish hamda aloqa tarmog`i orqali jo`natmalarini etkazib berishga bo`lgan ehtiyojlarini qondirib kelmoqda. Aholining telefon nomerlari bilan ta`minlanishi 30%ni tashkil etadi. 2003 yilning oxiridan boshlab uyali aloqa vositalaridan foydalanuvchilarga qulaylik tug`dirish maqsadida Jomashuy shaharchasida "Uzdunrobita" qo`shma korxonasi 200 ta abonentga xizmat ko`rsatuvchi uzatish va qabul qilish antenasi ishga tushirildi.

Tuman aholisiga xizmat ko`rsatuvchi bosmaxona 1971 yilda tashkil etilgan bo`lib, asosiy buyurtmachisi "Minbuloq" ro`znomasi bo`lib, u haftada bir marta 3050 nusxada chop etiladi.

Aholiga maishiy xizmat ko`rsatish tuman maishiy xizmat ko`rsatish ishlab chiqarish birlashmasi orqali amalga oshiriladi. Bu birlashma 1988 yilda tashkil etilgan. Tumanda ko`p tarmoqli kommunal xo`jalik tarkibida uy-joy xo`jaliklariga xizmat ko`rsatish, uni ta`mirlash va saqlash, suv ta`minoti hamda kanalizatsiya, issiqlik va gazlashtirish, aholi yashaydigan joylarni tozalash bilan shug`ullanuvchi sanitariya - texnika tashkilotlari va obodonlashtirish bo`limi tomonidan kommunal xizmat ko`rsatishni amalga oshirmoqda.

Aholi xonadonlarini gazlashtirish darajasi viloyat o`rtacha ko`rsatkichidan bir muncha yuqori bo`lib, u qariyb 76,7 foizni tashkil etadi. Buni quyidagi jadvaldan ko`rish mumkin.

Tuman aholisining 2010 yil holatiga ko`ra tabiiy gaz va ichimlik suvi bilan ta`minlanish darajasi

Qishloq va shahar fuqarolar yig`ini nomi	Gazlashtirish foiz hisobida	Ichimlik suvi foiz hisobida
Jomashuy shaharchasi	98,2	90,8
Gulbog` QFY	75,2	96,5
Gurtepa QFY	100,0	83,3
Oltinko`l QFY	87,8	69,2
Mehnatobod QFY	86,7	96,5
Momoxon QFY	68,1	70,8
Dovduq QFY	84,5	78,9
Bo`ston QFY	23,6	41,1
Tuman bo`yicha jami	86,4	76,7

Tuman aholisining ichimlik suvi bilan ta`minlanishi qoniqarli emas. Jami xonadonlarning atiga 76,7 foizi toza ichimlik suvi bilan ta`minlangan, xolos. Tumanning Bo`ston va Oltinko`l QFY larida bu ko`rsatkich 41-70 foizdan iborat.

Tumanda savdo va umumiy ovqatlanish nomoddiy ishlab chiqarishning asosiy tarmoqlari hisoblanadi. 2010 yilda tumanda chakana savdo aylanmasi hajmi 46018,8 million so`mni, aholiga pullik xizmat ko`rsatish hajmi 8101,6 mil. so`mni, shu jumladan maishiy xizmat ko`rsatish hajmi 1536,2million so`mni tashkil etdi. Aholiga 170 ta savdo do`konlari xizmat ko`rsatmoqda. Ularda 150 kishi ishlaydi.

Iqtisodiyotning nomoddiy sohasida aholiga ijtimoiy-madaniy xizmat ko'rsatish muhim ahamiyatga ega. Bu soha xalq ta'limi, fan va madaniyat, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish, jismoniy tarbiya va sport kabi bilim va ma'rifatli, jismonan sog'lom va baquvvat barkamol avlodni shakllantiruvchi tarmoqlarni o'z ichiga oladi. Barkamol avlodni shakllantirishning asosini esa ta'lim va tarbiya jarayoni tashkil etadi (ijtimoiy-madaniy soha tarmoqlari haqida ma'lumot jadval-19 da berilgan).

Jadval,21

Mingbuloq tumanida 2010 yilda ijtimoiy- madaniy soha tarmoqlarining rivojlanishi

Muassasalar nomi	Soni (ta)
Umumta'lim maktablari	50
Undagi o'quvchilar soni	17951 ming
Kollej	6
Undagi o'quvchilar	5879
Maktabgacha tarbiya muassasasi	63
Undagi tarbiyalanayotganlar	3350 (qamrov 67,7 foiz)
Klub	6
Undagi o'rinlar	750 kishi
Kutubxona	27
Kitobxonlar soni	23100 kishi
SHifoxona	2
SHifoxonadagi o'rinlar	540
Qishloq ambulatoriyasi	16
Poliklinika	1
Vrachlar soni	132
O'rta tibbiy xodimlar	610
Dorixona	7
Savdo do'konlari	174
Maishiy xizmat ko'rsatish joylari	225
Banklar	3

Tumanda xalq ta'limini rivojlantirishga o'tgan asrning dastlabki yillaridanoq e'tibor kuchaytirildi. 1924 yili Gurtepa va Qolgandaryo qishloqlarida birinchi maktablar ochildi. Bu maktablarda Xayrullo Paxtaxov, Mamadali YUnusov, Madamin Axrorov, Abdug'affor Parpievlar o'qituvchilik qilishgan. 1925-26 yillari Jo'mashuyda, keyinchalik quyi qishloqlar - Beshserka, Yakkatol, Yakkatutda boshlang'ich maktablar ochildi. 1952 yilga kelib tuman hududida 3 ta o'rta ta'lim maktablari, 10 ta to'liqsiz o'rta maktablari va 6 ta boshlang'ich maktablari faoliyat ko'rsatdi.

Mustaqillikka erishilgandan so'ng, ta'lim tizimida tub islohotlar o'tkazildi. "Ta'lim haqida" qonun, "Kadrlash tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi. Respublikada besh bosqichli ta'lim tizimi joriy etildi. Ta'lim tizimida islohotlar o'zining samarasini bermoqda. Zamonaviy o'quv qurollari bilan jihozlangan maktablar, litseylar, kasb-hunar kollejlari qad ko'tarmoqda. Hozir tumanda umumta'lim maktablarining soni 50 ta bo'lib, ularning bittasi litsey va bittasi maktab internetlaridir. Umumta'lim maktablarida 17951 nafar o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berilmoqda. Maktablarda bir smenali o'quv jarayoni 90 foizini tashkil etadi. Tumanda ikkita kasb-hunar kollejlari bo'lib, ulardan biri Jomashuy shaharchasida joylashgan. Kollejda 471 nafar talaba o'qimoqda. Yana bir kollej Dovduq qishloq fuqarolar yig'inida joylashgan bo'lib, unda 405 nafar talaba bilim olmoqda.

Tumanda 63 ta maktabgacha tarbiya muassasalari mavjud bo`lib, ular 6500 nafar bolalarni tarbiyalashga mo`ljallangan. Hozir mavjud maktabgacha tarbiya muassasalarida 3350 nafar bolalar tarbiyalanmoqda. Bolalarni tarbiyalashga jalb etish ko`rsatkichi 67,7 foiz.

Hozir tumanda 348 ta sport inshootlari, jumladan 38 ta sport zallari hamda 4 ta stadionlarda 27,1 ming nafardan ziyod yoshlar muntazam sport turlari bilan shug`ullanadilar. Jismoniy tarbiya va sport sohasida milliy ma`naviyatni tiklanishiga katta e`tibor berilmoqda. Tumanning qishloqlari va jamoalari o`rtasida milliy o`yinlar va sport turlari bo`yicha musobaqalar o`tkazilib, ularning keng ommalashtirilishi uchun tadbirlar o`tkazilmoqda.

Tumandagi mavjud ommaviy kutubxonalarining 25 tasi qishloq joylarida joylashagan. Mavjud 345,1 ming nusxadagi kutubxona fondidan 23,1 mingdan ziyod kitobxonlar foydalanib kelmoqdalar. SHuningdek, tuman aholisiga 6 ta klub muassasalari va 2 ta kinoqurilmalar xizmat ko`rsatmoqda.

Tumanda sog`liqni saqlash sohasiga ham katta e`tibor berilgan. Mingbuloq tuman markaziy shifoxonasi 1953 yilda tashkil topgan. Mingbuloq bosh suv inshootida bitta tibbiy xizmat ko`rsatish shaxobchasi bo`lgan. Hozir tumanda 2 ta davolash muassasalari mavjud bo`lib, ulardagi o`rinlar soni 540 tani tashkil etadi. Poliklinika va ambulatoriyalar soni 18 ta bo`lib, ularda ishlovchilar soni 210 ta, davolanuvchilar esa 18588 tani tashkil etadi. Davolash muassasalarida jami 132 nafar malakali vrachlar hamda 610 nafar o`rta tibbiyot xodimlari xizmat qiladi. 18 nafar vrachlar xususiy tibbiy xizmat faoliyati bilan shug`ullanadilar. Jahon andozalariga mos ravishda tibbiy xizmat ko`rsatishni rivojlantira borib, 2002 yilda tuman markazida zamonaviy tibbiyot uskunalari bilan jihozlangan “Tez tibbiy yordam markazi” foydalanishga topshirildi va hozir aholiga namunali xizmat ko`rsatmoqda.

YUqoridagi nomoddiy ishlab chiqarish soha tarmoqlaridan tashqari aholini turmush tarzini yaxshilash maqsadida ijtimoiy muhofazaga ham alohida e`tibor berilgan. Bunda tumandagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj, mehnatga layoqatsizlar, ko`p bolali va kam ta`minlangan oilalarga, beva bechoralarga mahalliy byudjet, ijtimoiy sug`urta jamg`armasi, korxonalar va jamoat tashkilotlari hamda xayriya jamg`armalari tomonidan ajratilayotgan mablag`lar hisobiga yordam ko`rsatib kelinmoqda.

Tumanda 3 ta bank (“Paxta” bank, “Tadbirkor” bank, “Xalq” banki) va ularning joylardagi shahobchalari orqali aholi, tashkilot, xo`jaliklar va muassasalarga moliyaviy xizmat ko`rsatib kelinmoqda.

XULOSA

O`zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so`ng bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari asosida yangi huquqiy demokratik jamiyat ko`rmoqda. Iqtisodiyotning asosini erkin iqtisodiyot va munosabatlar tashkil etmoqda. Bozor munosabatlari asosida rivojlanayotgan mustaqil va erkin iqtisodiy taraqqiyot esa har bir mamlakat va uning xalqidan barcha

imkoniyatlardan keng va unumli foydalanishni taqazo taqozo qiladi. Mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish esa uning hududini chuqurroq o'rganish, tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlarini xo'jalik jihatdan tahlil qilishni talab etadi. Ayniqsa, jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi o'z ta'sirini o'tkazayotgan hozirgi sharoitda bu masala o'ta dolzarbdir. SHu bois, Mingbuloq tumani va uning hududini tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy geografik jihatidan majmual o'rganish quyidagi xulosalar va tavsiyalarni qilishga olib keldi.

1. Tuman hududining geografik o'rnini bir muncha qulay, suv, quyosh radiatsiyasini etarli bo'lishi, rel'efining tekislikdan iboratligi, Uchqo'rg'on, Qo'qon, Qo'qon – Namangan va Namangan – Farg'ona avtomobil' yo'llarining kesib o'tishi hamda Sirdaryoning shu hududdan oqib o'tishi uning geografik o'rnini qulayligidan dalolat beradi.

2. Mingbuloq tumani resurslarga boy bo'lmasada, uning hududida 1992 yil 2 mart kuni otilib chiqqan neft favorasi va zahirasi salmoqli mavqega ega. SHuningdek, qurilish materiallari, ayniqsa inson salomatligi uchun zarur bo'lgan shifobaxsh ma'dan suvlari katta ahamiyatga ega. Tarkibida juda ko'p mineral va dorivor moddalar bo'lgan sho'r suvdan samarali foydalanilganicha yo'q. Bu suvdan foydalanishni rejali amalga oshirib, davolash va dam olish maskanlarini barpo etish lozim.

3. Yana bir ahamiyatga ega bo'lgan asosiy boyligi – bu tuproq cho'l hayvonlari va o'simliklaridir. Lekin ulardan ekologik sharoitni e'tiborga olmay foydalanish hollari uchramoqda. Ayniqsa, Istiqlol fermer xo'jaligidagi 100 gektar erda qo'riqxonaga tashkil etilib, uning qo'riqlash amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

4. Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni samaradorligini oshirish uchun ekin maydonlarining agromeliorativ holatini yaxshilash asosida tuproq unumdorligini oshirish lozim. Keyingi yillarda zakan va zavurlarni o'z vaqtida qazimaslik, yerlarni shudgorlashda agrotexnik talablariga rioya qilmaslik, almashlab ekishni muntazzam joriy etmaslik, mineral va organik o'g'itlardan rejasiz foydalanish va boshqa omillar ta'sirida katta maydonda sho'rtop, sho'rhok va botqoqlanish kuchaymoqda. Hozirgi kunda ekin maydonlarining 19,0 foizi kuchli, 47,2 foizi o'rtacha va 32,9 foizi kuchsiz sho'rlangan yerlardan iborat. Qishloq xo'jaligiga yaroqli ekin maydonlarini 5991 gektari yoki 16,0 foizida yer osti sizot suvlari yer yuzasiga yaqin joylashgan (1,0-1,5 metr) botqoq yerlardir. Sho'rhok, sho'rtok va botqoqlashgan hududlarda zakan va zovurlarni o'z vaqtida muntazzam qazish, sho'rini yuvish va boshqa agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish asosida tuproqlarning unumdorligini yaxshilash va dehqonchilik mahsulotlari yetishtirish yalpi hosili miqdorini ko'paytirish maqsadga muvofiq. Tumanning Gulbog' Istiqlol va Xorazm xo'jaliklari hududidagi gipsli qatlam tuproqlarda yer yuzasiga yaqin yerlarda zakan va zovurlardan qazilgan tuproqlarni yotqizish hamda chuqur shudgorlash asosida tuproq unumdorligini oshirish lozim. 5. Tumanda tadbirkorlikni avj oldirish, ularni moliyaviy-huquqiy, qo'llab-quvvatlash, fermer, dehqon-fermer xo'jaliklarini jadal rivojlantirish hamda mulkchilikning boshqa ilg'or shakllaridan unumli foydalanish kerak. Eng muhimi, tuman qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda aholini kuchli ijtimoiy himoyalash asosida qishloq xo'jaligida rejadagi paxta, g'alla, pilla, boshqa chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishni ko'paytirishga erishish mumkin. Zero, viloyatda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yalpi hosili rejasining taqdiri, ayniqsa paxtachilikda ko'p jihatdan Mingbuloq tumanida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini samarali tashkil etilishiga bog'liq.

6. Aholi punktlari tartibsiz joylashganligi va tuman hududida sanoat korxonalarini hamda ijtimoiy infrastrukturasi yaxshi rivojlanmaganligi qator ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Xususan, mavsumiy ishsizlar soni ko'paymoqda, ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlanish talab darajasida emas. Ayniqsa, mahalliy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash asosida kichik korxonalar tashkil etish ham talab darajasida emas. SHuningdek, tuman xo'jaligining salohiyatini oshirishda chet el sarmoyalari jalb etish asosida qo'shima korxonalarini barpo qilishga etarli e'tibor berilmayotir. Vaholanki, tuman aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda viloyatda eng oxirgi o'rinda turadi. Mavjud 2 ta qo'shma korxonalar ham to'la quvvatda ishlayotir.

7. Tumanning Sirdaryo bo`ylarida o`rmonchilikni rivojlantirish hamda mahalla xom ashyo (g`o`za poya, sholi, bugdoy poyalari) asosida bir nechta kichik (yog`ochni qayta ishlash, qurilish materiallari dvp, dsp fonerlari va b.) korxonalarini barpo etish hozirgi kunning dolzarb masalasi.

8. Tumanda ta`lim tizimini “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablari asosida akademik litsey va qator kasb-hunar kollejlari tashkil etish asosida kadrlar tayyorlashning sifat jihatidan yaxshilashga erishmoq zarur.

9. Yuqoridagi tavsiyalarni amalga oshirilishva bajarilishini ta`minlashda mahalliy hokimiyat (tuman hokimligi, qishloq va mahallalar fuqarolar raislari) bosh islohotchi bo`lishlari lozim. Zero, ularga tuman hududidagi mavjud tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy, intellektual va boshqa imkoniyatlarning qanday darajada ekanligi va ularni ijtimoiy ishlab chiqarishga qanday jalb etish mumkinligi ayondir. Faqat ulardan intilish va tashabbuskorlik talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Ijobiy ishlarimizni oxiriga yetkazaylik. T., “O`zbekiston”, 1992.
2. Karimov I.A. O`zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo`lida. T., “O`zbekiston”, 1995.
3. Karimov I.A. O`zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T., 1995.
4. Karimov I.A. O`zbekiston XXI-asr bo`sg`asida... havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., “O`zbekiston”, 1997.
5. Karimov I.A. Buyuk kelajak sari. T., “O`zbekiston”, 1998.
6. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. T., “O`zbekiston”, 1999.
7. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari. T., “O`zbekiston”, 2009.
8. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va halqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir (Vazirlar Mahkamasining 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O`zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan majlisidagi mahruzasi). T., “Halq so`zi” gazetasi, 2010 yil 30 yanvarg`.
9. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi. O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonnunchilik Palatasi Senatining qo`shma majlisidagi mahruzasi. “Halq so`zi” gazetasi, 2010 yil, 13 noyabrg`.
10. Karimov I.A. Barcha reja va dastrularimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, halqimiz farovonligini xizmat qiladi. 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo`ljallangan eng muhim ustuvor yo`nalishlarga bag`ishlangan O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Majlisidagi mahruzasi. “Xalq so`zi” gazetasi. 2011 yil 22 yanvar soni.
11. “Oliy tahlim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari” to`g`risidagi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori “Halq so`zi” gazetasi, 2011 yil, 21 may soni.

12. Karimov I.A. 2012 yil – Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarilgan yil bo'ladi. - Toshkent "O'zbekiston" nashriyoti, 2012 yil – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi
13. Qoraxanov M.K. Naselenie i naselennqe punktg. Ferganskoy dolinq. –V sb: Materialq mejvuzovskoy nauchnoy konferentsii po problemam narodo-naseleniya Sredney Azii. T., 1965.
14. Burieva M.R. O'zbekistonda oila demografiyasi. T., "Universitet", 1997.
15. Burieva M.R., Tojjeva Z.N. Aholi geografiyasi. Mahruzalar matni. T., 2001.
16. Umarova M.A., Artqkbaev R.D. Osnovq demografii. T., 2001.
17. Ahmedov E. O'zbekiston shaharlari mustaqillik yillarida. T., 2002.
18. Ortiqboe R.J. O'zbekiston aholisi va aholi manzilgohlari mustaqillik davrida. "Istiqlol va geografiya". T., 1995, 173-176 betlar.
19. Ubaydullaeva R.A., Ata-mirzaev O.B., Umarova N.O. O'zbekiston demografik jarayonlari va aholi bandligi. Ilmiy-o'quv qo'llanma. T., 2006.
20. Abdullaev O. Namangan viloyati. T., "Mehnat", 1997.
21. Abdullaev O. Frg'ona vodiysi: iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanish tendentsiyalari. Namangan, 2002.
22. Akramov Z.M. Namanganskaya oblastg'. (isteriko-geograficheskiy ocherk). T., 1954.
23. Asanov G.R. Aholi geografiyasi. O'quv qo'llanma. T., "O'qituvchi", 1978.
24. Asanov G.R., Nabixonov M., Saforov I. O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jo'g'rofiyasi. T., "O'qituvchi", 1994.
25. Mullajonov I.R. O'zbekiston aholisi. T., "O'zbekiston", 1974.
26. Mallaboev T.N. "Farg'ona vodiysining demografik rivojlanishi va mehnat resurslaridan samarali foydalanish masalalari". O'zbekiston Geografiya Jamiyati III-shezdi materiallari. T., 1990, 3-qism 295-297 betlar.
27. Mallaboev T.N. Farg'ona iqtisodiy rayoni sanoat tugunlarida mehnat resurslaridan foydalanish muammolari. O'zbekiston aholisi va mehnat resurslaridan foydalanish. To'plam, T.,1992, 96-102 betlar.
28. Soliev A., Mallabaev T. "Iqtisodiy va sotsial geografiya kursidan ayrim qonuniyatlarini o'rganish metodikasi". T., 1988.
29. Soliev A. Va boshqalar. Mintaqaviy iqtisodiyot. T., 2003.
30. Soliev A., Mahamadaliyev R. "Iqtisodiy geografiya asoslari". T., "O'zbekiston", 1996.
31. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir // Vazirlar mahkamasining 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisidagi mahruzasi. T.: "Xalq so'zi" gazetasi, 2010 yil, 30 yanvarg'.
32. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi mahruzasi // Xalq so'zi, 2010 yil 13 noyabrg'.
33. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz tarahhiyotini yuksaltirish, xalhimiz forovonligini oshirishga xizmat hiladi. Prezident Islom Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-ihtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi mahruzasi. "Xalq so'zi" gazetasi, 22 yanvarg'.
34. www. Ecologiy.info
35. htt': ecoinform freenet.uz
36. www. Edu'mao.ru ('ortal)
37. htt': www.murman.ru (ecology) comitet.
38. www.ziyonet.uz
39. www.referot.ru